



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan ● 2024-yil 21-iyun, №25 (3087)

YELKAMDAGI  
QAMCHI IZI

13

"HAR BIR FUQARO  
QALBAN CHEGARACHI  
BO'LSA..."

8-9

ASKARLAR TAKTIK  
MASHG'ULOTLARDA  
TOBLANMOQDA

5

O'zbekiston harbiy  
aviatsiya institutida  
ilk bitiruv



IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

**BIZ**  
HAQIMIZDA

@vatanparvar-bt@umail.uz  
t.me/mudofaavazirligi  
facebook.com/mudofaavazirligi

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya



# TARIIXIY UNUTILMAS



Mudofaa  
vazirligi  
tasarrufidagi  
oliy harbiy ta'limga  
muassasalarida  
ofitser bo'lishni  
maqsad qilib,  
tanlagan  
sohalari  
bo'yicha  
ta'limga olgan  
o'g'lonlarning  
navbatdagi  
bitiruv  
tantanalari  
ko'tarinki ruhda  
o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Prezidentining joriy  
yil 17-yanvardagi qaroriga asosan,  
Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti  
negizida O'zbekiston Respublikasi  
harbiy aviatsiya instituti tashkil  
etilgan edi. 20-iyun kuni Qarshi  
shahrida joylashgan Harbiy aviatsiya  
institutining ilk qaldirg'ochlarining  
bitiruv marosimi bo'lib o'tdi.

Tantanali tadbirda mudofaa vaziri  
general-leytenant Bahodir Qurbonov  
institut shaxsiy tarkibi,  
harbiy aviatsiya  
mutaxassislarini  
va bitiruvchilarni  
samimiy qutladi.  
Shuningdek, milliy  
armiyamiz saflarida  
o'z o'mniga ega bo'lgan  
mazkur institut  
harbiy xizmatchilarini  
va kursantlari uzoq  
yillardan buyon  
turli taktik-o'quv  
mashg'ulotlarida,  
umumarmiya  
o'yinlarida, qolaversa  
xalqaro musobaqlarda  
faol qatnashib,



O'zbekiston bayrog'i baland  
ko'tarilishiga munosib hissa qo'shib  
kelayotgani alohida e'tirof etildi.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyati hokimligi, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi vakillari ishtirok etib, yosh ofitserlarning xizmat faoliyatiga zafarlar tiladi. Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, davlat va jamaot tashkilotlari vakillari, ota-onalar ham bitiruvchilarga o'zlarining samimiy tilaklarini bildirdilar. Yosh leytenantlar zimmasidagi ulkan mas'uliyatni his qilgan holda, bildirilgan yuksak ishonchga munosib bo'lishga va'da berdi.

Shuningdek, ta'limga muassasasi tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan bo'lg'usi ofitserlarga saboq berish borasida sidqidildan mehnat qilayotgan, sharaflı kasbini sadoqat bilan ado etayotgan harbiy xizmatchilar

va Qurolli Kuchlar xizmatchilarini mudofaa vaziri tomonidan ko'krak nishonlari, faxriy yorliqlar, esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shu kuni ko'p yillardan beri harbiy aviatsiya sohasida salmoqli faoliyat olib borib, harbiy xizmati davomida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning qahramonliklarini e'tirof etish, xotirasini abadiylashtirish maqsadida institut hududida barpo etilgan xotira monumentining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tantanali tadbir doirasida institutda "O'zbekiston Respublikasida harbiy aviatsiyaning rivojlanish tarixi va istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etildi. Undan ko'zlangan maqsad O'zbekistonda harbiy aviatsiya sohasining rivojlanish tarixini ilmiy yondashuvlar asosida chuqr o'rganish, yetuk mutaxassislar taktikasini tahlil qilish,



# KUN TANTANA



zamonaviy aviatsiya texnikalari va qurollarini qo'llagan holda mazkur taktikani takomillashtirish, shuningdek institutga eng yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali ta'lim jarayonini tashkillashtirish, sohadagi dolzarb muammolar asosida ilmiy izlanishlar olib borish yo'nalishlarini belgilash hamda yetuk ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Konferensianing vazifasi esa harbiy aviatsiya tarixi, rivojlanish bosqichlarini, muammolar va imkoniyatlar kontekstida qiyosiy tahlil etish, yurtimizda harbiy aviatsiya sanoatining rivojlanish tendensiyalari, materiallar va ishlab chiqarish texnologiyalarini o'rganish, yaqin tarixda bo'lib o'tgan harbiy harakatlarda aviatsianing qo'llanilishi asosida tahliliy ma'lumotnomha tayyorlash, parvoz

xavfsizligini ta'minlashga kreativ yondashish, O'zbekiston Qurolli Kuchlariga kirib kelgan yangi, zamonaviy aviatsiya texnikalari va qurollarini o'rganish hamda ularni xavfsiz ekspluatatsiya qilish O'zbekistonda harbiy aviatsiyani yanada rivojlanirish chora-tadbirlarini muhokama etish, uchuvchisiz uchish apparatlarining fan-texnika taraqqiyotidagi o'rni va roli bo'yicha fundamental

hamda amaliy tadqiqotlar o'tkazish, harbiy uchuvchilar hamda aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashning dolzarb muammolari, holati va istiqbollari bo'yicha takliflarni ishlab chiqishdir.

Ma'lumki, mustaqillikning ilk yillarda harbiy sohada milliy kadrlar tayyorlash masalasida tanqislik vujudga kelgan edi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda harbiy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish,

isloh etish va rivojlanirishni taqozo etdi. O'zbekiston Respublikasida harbiy aviatsiya sohasining rivojlanishi va shakllanishi jarayonlari ana shunday keskin sharoitlarga to'g'ri keldi. Shu holatlarni nazarda tutib, mamlakatda harbiy kadrlar tayyorlashga katta e'tibor qaratildi. Ilgari

tor mutaxassislarni tayyorlovchi harbiy bilim yurtlari keng qamrovli

mutaxassislar tayyorlaydigan oliy harbiy ta'lim muassasalariga aylantirildi. Islohotlar jarayonida respublikamizda harbiy aviatsiya sohasining rivojlanishiga qaratilgan e'tibor mamlakatda havo hujumidan mudofaa qilish prinsipini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 20-iyundagi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 1994-yil 9-iyuldaggi buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Harbiy havo kuchlari qo'mondonining 1994-yil 1-avgustdagagi farmoyishi esa yurtimizda nafaqat harbiy aviatsianing rivojlanishi va shakllanishi, balki uning kelajakdagisi istiqbollarini belgilovchi omil bo'lib xizmat qildi. Konferensiyada bu haqda alohida so'z bordi.

Anjunanda ilmiy munozara mavzusini sifatida muhokama qilingan masalalar O'zbekistonda harbiy aviatsiya sohasining yanada rivojlanishi va istiqbollarining yangi tadqiqot yo'nalishlarini belgilash, ilmiy-nazariy va amaliy takliflar asosidagi ma'lumotlar bazasini kengaytirish imkonini beradi.



**Mayor Aziz NORQULOV,  
“Vatanparvar”**



Markaziy harbiy okrugning "Sazagan" dala-o'quv maydonida okrug qo'shinlaridagi vzvod komandirlari va ularning o'rinosbosarlari ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi. Unda ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi dastlab yugurish, tosh ko'tarish, turnikda tortilish kabi mashqlarda tekshirildi.

# Kasbiy ko'nikmalar sinovdan o'tkazildi



Mudofaa vazirligi qo'shinlarida "Jangovar vzvod yili" shiori ostida o'tkazilayotgan ushbu yig'indan ko'zlangan asosiy maqsad jangovar vzvodlarning hamjihatligi, birdamligi va uyg'unligini yanada mustahkamlash, harbiy xizmatchilarining professional tayyorgarligini takomillashtirish, bo'linma komandirlarida liderlik qobiliyatini oshirishdan iboratdir. O'quv yig'ini davomida yurt o'g'lonlari qurollar, jangovar va zirhli texnikalardan foydalanish bo'yicha bilimlarini

mustahkamlagach, ular yordamida belgilangan nishonlarga o'q otish shartlarida menganlik mahoratini sinovdan o'tkazdi. Kunduzgi sharoitda amalga oshirilgan mashg'ulotlardan so'ng navbat tungi sinovlarga yetib keldi. Unda harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni bu jarayon vzvod komandirlari va ularning o'rinosbosarlari uchun o'ziga xos ko'nikma, tajriba bo'lishini ta'kidlab, o'z ko'rsatmalarini



berib o'tdi. Bugungi zamonaiv jang sharoitidan kelib chiqib, har qanday vaziyatda ham qo'l ostidagi shaxsiy tarkib bilan jang maydonida talafotsiz g'alabaga erishish uchun, eng avvalo, komandirlarning bilim-saviyasi yuqori darajada bo'lishi lozimligi hamda tungi sharoitda qurollarni mohirona qo'llay bilishi muhim vazifa ekanini aytib, tungi moslamalar bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etildi.

Nazariy bilimlar mustahkamlangach, vzvod shaxsiy tarkibi tomonidan tungi sharoitda jijslikda harakatlanib, jang olib borish, dushmanni yakson etish hamda madad kuchlaridan

foydalinish jarayoni amaliy ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, yig'in ishtirokchilarining tungi moslamalar yordamida nishonlarni yakson etishi ham sinovdan o'tkazildi. Yakunda egallangan bilim va ko'nikmalar test, taktik va topografik sinovlari orqali tekshirildi.

**Katta leytenant  
Otabek NORBOYEV,  
Markaziy harbiy  
okrug matbuot  
xizmati boshlig'i**

Tajriba



# Askarlar taktik mashg'ulotlarda toblanmoqda



Nukus shahrining  
“Otchopar” maydonida  
Nukus va Urganch  
garnizonlarida joylashgan  
harbiy qismlarning  
transport vositalari  
haydovchisi lavozimidagi  
muddatli harbiy  
xizmatchilar ishtirokida  
majmuaviy maxsus-taktik  
mashg'ulot o'tkazildi.



O'quv mashg'uloti tongda  
shartli signal bilan boshlanib, unda  
haydovchilar harbiy texnikalarini yuqori  
jangovar shaylik holatiga keltirishi  
va qisqa vaqtida harbiy qismning  
avtomobil hamda jangovar texnikalarini  
saqlash parkidan chiqib ketishi  
belgilangan.

Maxsus-taktik mashg'ulotda  
haydovchi lavozimida muddatli harbiy  
xizmatni o'tayotgan askarlar shtatdagi  
avtomobil texnikalarida murakkab  
mashqlarni bajarish, transport  
vositalarini kolonnada boshqarish,  
zararlangan hududlar va o'tuvchanligi  
qiyn bo'lgan joylardan haydab o'tish  
kabi mashqlarni bajardi. Yo'l harakati  
qoidalari va madaniyati bo'yicha  
bilimlar boyitildi.

Haydovchilik mahoratiga ega  
bo'lgan askarlar mashg'ulot davomida  
avtomobilarga texnik xizmat  
ko'rsatish, shartli kichik nosozliklarni  
aniqlash va ularni qo'l ostidagi ish  
qurollari yordamida bartaraf etish kabi  
shartlarni uddalashdi.

Haydovchilarining psixologik  
kuchlanish va jismoni zo'r qishlarni  
yengishi mashg'ulot yakunida  
kolonna bilan 50 km masofaga amalga  
oshirilgan marsh davomida sinovdan

o'tdi. Mashqlarni bajarishda  
o'tuvchanlik qiyn bo'lgan,  
asfalt qoplamali, qumliklar va  
balandliklarda hamda shartli  
ravishda ommaviy qirg'in qurollari  
qo'llanilgan maydonda haydovchilik  
mahoratini namoyish etishga  
alohiba e'tibor qaratildi.

Mashg'ulot davomida  
haydovchilarning yo'l harakati  
qoidalari hamda yo'l-ishora  
belgilarini bilishi, transport  
vositalarini xavfsiz boshqara olishi,  
nostandard vaziyatlarda to'g'ri  
qarorlarni tez va ishonchli qabul  
qilishi bo'yicha nazariy bilim va  
amaliy ko'nikmalari baholandi.

Yo'l harakatini tartibga solish  
uchun tayinlanganlar bilan harbiy  
avtomobil nazorati mutaxassislari  
ishtirokida ko'rgazmali mashg'ulot,  
marshdan qaytgan muddatli harbiy  
xizmatchilar bilan psixologik  
yuklamalarni yechish bo'yicha  
treninglar o'tkazildi.

Mashg'ulot davomida xavfli  
hududlardan shartli ravishda o'tgan  
texnikalarini radiatsion, kimyoviy,  
biologik muhofazasini ta'minlash  
maqsadida kimyoviy ishlov berish  
tartibi namoyish etildi.


**Shimoli-g'arbiy harbiy  
okrug matbuot xizmati**





Askarlar davrasining o'zgacha shukuhi bor. Har gal ular davrasida bo'lqanimda o'zgacha g'urur tuyaman. Kuch-g'ayratga to'la, orzulari osmon, g'ayrati jo'sh urib turgan bu yigitlar – yurt istiqbolining egalari. Ayni damda ilkidagi yigitlik burchini egallashga bel bog'ilagan o'g'lolar harbiy xizmat ko'nikmalarini bosqichma-bosqich o'zlashtirib bormoqda. Podpolkovnik Azizbek Ahmedov xizmat qilayotgan harbiy qismida xizmat boshlagan bu yigtlarning Vatan himoyachisi bo'lishdek shijoati tahsinga sazovor.

#### OTAMNING ORZUSI AMALGA OSHDI



**ODDIY ASKAR  
MUHAMMADAZIZ TO'LQINOV**

Farg'ona viloyatining Toshloq tumanidan muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askar Muhammadaziz To'lqinov otasi Umidjon akaning orzusi amalga oshganidan xursand.

– Dadam sakkiz yoshimda olamdan o'tgan, – deydi Muhammadaziz askarlik faoliyati haqida so'z boshlar ekan.

– Otam harbiy xizmatga borishni juda istagan, biroq ma'lum sabablarga ko'ra, bu orzusi armonga aylangan. Bugun dadamning mana shu niyatini yuzaga chiqqaranidan xursandman. Harbiy qismiga ilk qadam qo'yganimda, ilk harbiy libos kiyqanimda, Vatanga qasamyod onlarida dadam ko'z oldimdan o'tdi, ko'ksim tog'dek ko'tarildi. Yigitlik burchimni ishtiyoq bilan boshlaganim uchun harbiy xizmatning dastlabki ko'nikmalarida qiyinchilik sezmadim. Ayni fursatda komandirlarimiz tomonidan o'tkazilayotgan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni chuqur o'zlashtirishga, a'lchi askarlar safida bo'lishiga harakat qilyapman.

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Muhammadaziz To'lqinovning xizmatga qadar Namangan davlat universitetida tahsil olgani bilan birga, tadbirkorlikka qiziqishi katta ekanidan boxabar bo'ldik. Albatta, tadbirkorlik o'ziga xos intilish, yaratuvchanlikni talab

etadi. Bu yurtimiz rivojiga ulush qo'shish demakdir.

Muhammadazizning onasi Sohibaxon opa yolg'izgina surriyotining askarlar safida qad rostlaganidan boshi osmonda. Vatanga qasamyod tadbirda ishtirok etgan baxtiyor onanining quvonchini posbon o'g'loni ta'kidlab o'tdi. Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar M. To'lqinovning erishajak harbiy bilim va ko'nikmalari hali oldinda. Shubhasiz, bu sharafla majburiyatni u a'lo darajada uddalaydi.

#### MAQSADIM – DIPLOMAT BO'LISH



**ODDIY ASKAR  
AZIZBEK ASLIDDINOV**

– Chet tillarni o'rganishga qiziqaman, – deydi xizmatda o'z o'rniqa ega bo'lib ulgurgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Azizbek Asliddinov. Shuning uchun Samarqand shahridagi 16-umumta'lum məktəbida o'qish jarayonidan boshlab, xorij tillarini o'zlashtirishga harakat qilganman. Armiya safiga kelgunga qadar bir yil davomida nodavlat institutda tahsil oldim. So'ngira Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga qaror qildim va harbiy xizmatga munosib bo'lish uchun astoydil tayyorlandim. Mana, orzum amalga oshib, posbonlar safida xizmat o'tayapman. Xizmatning ilk ko'nikmalarini o'zlashtirish va askarlik hayotiga moslashishimda guruh komandiri leytenant Avazbek Ikromov safdoshlari qatorida menga yaqindan yordam berdi. Harbiy xizmat o'tayotganimga ko'p bo'lgani yo'q, ammo maqsadim o'zgardi. Posbonlik burchimni talab darajasida o'tab, xizmatdan so'ng Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga o'qishga kirishga qaror qildim. Niyatim – diplomat sifatida mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib ulush qo'shish.

Darhaqiqat, ko'zlarida o't chaqnab turgan askar o'g'lolarning har birini o'z maqsad va rejasib bor. Mana shu ulug' niyat ularni xizmat sirlarini mas'uliyat ila o'zlashtirishga, yutuqlarga erishib, qaddi baland posbonlar safida qad rostlashga chorlab turadi. Ezgu harakat omadga yetaklaydi deganlaridek, muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Azizbek Asliddinovning orzulari ijobat bo'lishiga tilak bildiramiz.

#### ULUG' MAQSAD SARI INTILAYOTGAN POSBON



**ODDIY ASKAR  
NURBEK YUSUPOV**

Muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Nurbek Yusupov Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida voyaga yetgan. Shahardagi suv xo'jaligi kasb-hunar kollejini tamomlagan. Oltinchi sinfdan boshlab sportning erkin kurash va qo'ljangi turi bilan shug'ullanib kelgan yigitning xobbisi parashyutdan sakrash mashqi ekan. Odatda, sport bilan shug'ullangan yigitlar harbiy xizmat ko'nikmalarini o'zlashtirishda faol bo'ladi. Bu borada muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar N. Yusupov shunday fikrdi:

– Har qanday yigit hayotda kuchli, baquvvat, yengilmas bo'lishni istaydi. Shu sabab sport bilan shug'ullanishga harakat qiladi. Men o'quvchilik chog'imdan boshlab erkin kurash va qo'ljangi sirlarini o'zlashtirishga intilganman. Kasb tanlash haqida so'z ketganda esa harbiy xizmatchi bo'lish maqsadimga aylandi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchim Dilrabo Nuraliyevaning o'rni katta. Ustozimiz Vatan himoyachisi bo'lish sharafla kasb ekanini gapirib berganida ofitser bo'lish istagi ilk bora qalbimdan o'rin olgan. Bu qiziqish ulg'ayganim sari maqsadga aylandi. Shuning uchun askarlik xizmatiga astoydil bel bog'ladim. Harbiy xizmatning ilk ko'nikmalarini o'zlashtirishimizda katta leytenant Nabijon Jayolov hamda guruh komandiri III darajali serjant Doniyor Yo'ldoshev yaqindan yordam berdi. Shuningdek, ilk sinov onlarida muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar Anvar To'rayev, Fariz Sodiqov, Xurshid Mamalatipov kabi safdosh do'stalarim bilan bir-birimizga tayanch bo'ldik. Harbiy xizmatdagi dastlabki sinov – Vatanga qasamyod onlari barchamiz uchun hayajonli kechdi. Hayotimga muhrlanib qolgan bu tantanali tadbiriga ota-onam, bobom va tog'alarim keldi. 101 yoshga kirgan Yusuf bobom telefon orqali duolar qildi. Harbiy xizmatning navbatdagi ko'nikmalarini ham ishtiyoy bilan o'zlashtirib kelyapman. Niyatim – harbiy xizmatdan so'ng Chirchiq olyi tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida tahsil olib, Vatanimizning munosib imoyachisi bo'lish.

Askarlik sharafiga erishgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Nurbek

Yusupovning orzusi ofitserlik maqomiga musharrafa bo'lish. Albatta, zalvarli bu maqsad uchun sportchi o'g'lonimiz astoydil ter to'kishiga, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda oldingi safda bo'lishiga to'g'ri keladi. Bu borada Nurbekning qat'iyat ila intilishiga ishonamiz.

#### KITOBXON ASKAR



**ODDIY ASKAR  
OZODEBK YENGILOV**

Posbonlar orasida kitobga, mutolaaga mehr qo'yanlar kam emas. Ular xizmatdan bo'sh paytlari harbiy qismidagi kutubxonaga oshiqadi. Ziyoga intiluvchan kitobxon posbonlarimizdan biri muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Ozobek Yengilov.

Buxoro viloyati Peshku tumani Alliyor qishlog'ida voyaga yetgan askar o'g'lon umumta'lum məktəbini bitirganidan so'ng oilasiga tayanch bo'lish uchun bir muddat qurilish sohasida ter to'kdi. Qo'li bo'shadi deguncha, sportning boks va futbol turlari bilan shug'ullandi. Hordiq chiqarish onlarini mutolaaga bag'ishladi.

– Harbiy xizmatga, armiya hayotiga har bir yigit qiziqadi, – askarlik xizmati haqida samimiy so'z yuritadi Ozobek.

– Men ham yoshligimdan armiyaga borishga harakat qildim va maqsadimga erishdim. Saf tayyorgarligi, Umumharbiy nizomlar talablarini o'zlashtirish, harbiy quroldan foydalish sirlarini egallab kelayotganidan mammunman. Bu borada vzvod komandiri kapitan Nozim Ismatov va guruh komandiri I darajali serjant Said Haydarovdan minnatdorman. Dam olish soatlarida esa kitob o'qiyman. Buning uchun harbiy qism kutubxonasida barcha mavzuda kitoblar bor. Oldimga qo'ygan maqsadim – ilkimdag'i harbiy xizmatni a'lo darajada o'tab, komandirlarim va ota-onam ishonchini oqlash hamda orzu qilganimdek, moliya bo'yicha tahsil olib, sohaning yetuk mutaxassisi bo'lish.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, har bir askarning o'z kelajak maqsadi bor. Bu ezgu maqsad o'g'lolarni yurtimiz taraqqiyoti bilan bog'liq ulug' ishlarga safarbar etishiga ishonamiz.

**Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"**

Millat ma'rifatparvarlari

# JADIDLAR

## FAOLIYATINING ASOSIY G'oyasi

Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi choragida Turkiston milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi o'lka xalqlarining mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllandi. Behbudiy, Fitrat, Cho'Ipon, Munavvarqori, Abdulla Avloniy kabi jadidchilik harakatining taraqqiyatini namoyandalari Turkiston xalqlarini birlashtirish va butun o'ikaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdi.



Jadidlarning eng muhim talabalaridan biri maorif, ya'n barkamol avlod tarbiyasi edi. Ular bu orqali millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurishini maqsad qilgan edi. Chor hukumati istibdodidan qolqaholva tushib qolgan aholining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlarini tarafidan zuhur eta boshlagani kabi bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarining harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi".

Jadidlarning voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi

uchun kurashchi bo'lib yetishishi kerakligini uqtirib, har xil illatlardan xalos bo'lishga da'vat qildi. Mahmudxo'ja Behbudiy Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo do'konlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Masjid va madrasalar yaqinidagi bunday do'konlar bolalarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishini e'tirof etadi. O'sib kelayotgan avlod Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar bo'lib yetishib chiqishi uning orzusi edi.

Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta'lim-tarbiya olishida ota-onanining javobgarligi haqida so'z yuritib, o'z farzandining ma'rifatli bo'lishi uchun qo'lidan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini, aksincha buni istamaganlar ham yetarli ekanai haqida qayg'urib yozadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy sayohati davomida Bayrut olyi o'quv yurtlari va dorulfununi faoliyati bilan tanishar ekan, u yerda toliblar farang, olmon

va ingliz tillarida o'qitilishi, yevropalik olimlarning dars berishi, kimyo laboratoriyalari, tibbiyot oliyogholarida jarrohlik xonalarining borligiga havas qiladi, Turkistonning taraqqiyotdan naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi.

Turkistonning maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib oлgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan etib tarbiyalash, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolarini bilan shug'ullanadi. Yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy bu haqda "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni... talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga va Rossiya dorulfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy, dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqqa sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati xayriya" nomli tashkiloti orqali "ilk maktablarni bitirgandan so'ng Turkiya, O'rinnburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqarar edi".

Shu o'rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas, muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun sharingiz va millatingiz ila taraqqiyot qilursiz".

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtayi nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisolni og'u kabi insонни zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi.

Eski tuzum davrida biz o'z tariximizni bilmas edik. Ko'zimiz bamisolni ko'r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajodlarimizni tanimas edig-u, soxta "dohiy"lar hayotini - qachon, qayerda tug'ilgan, nima karomatlar ko'rsatgan - bilar edik, to'g'rirog'i, yodlab oлgan edik. Ularni bobomiz, otamiz, deb sig'inar edik. Bu aynan istibdod va qullik davri edi. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni, or-nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir so'z bilan aytganda, qormimizga emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi.

O'zlikni anglash degani - bu o'z tariximizni, ming-ming yillik an'analarimizni bilish degani. Agarki har qaysi odam kechagi tunni yaxshi biladigan bo'lsa, hech qachon avvalgi xatosini yana takrorlamaydi.

O'zingiz eslang, bir vaqtlar, kommunistik mafkura zamonida milliy urf-odatlar, an'analarini

rivojlantirish u yoqda tursin, hatto janozaga borish mumkin emas edi. Qarang, qanday og'ir zamon edi! Bu haqiqatni bolalarimizga to'g'ri tushuntirib bersak, tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to'g'ri yo'lga qo'yamizki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo'ladi, butun xalqimizga kuch-g'ayrat bag'ishlab turadi. Bu erkin, ozod, tinch va bargoror, obod va farovon hayot demakdir.

Jadid bobolarimiz sa'y-harakatlari, shaxsiy mablag'lari va tashabbuslari bilan Turkistonda tashkil etilgan ilk zamonaviy maktablarda yoshlarga faqat milliy ruhinigina emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalmilallik, Vatan ravnaqi, go'zalligini ham singdirishga harakat qilgan.

Jadidchilik Turkiston yoshlarning milliy, madaniy, ijtimoiy uyg'onishida va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonnинг dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatgan. Jahon taraqqiyotining ilm-fan yo'nalishida erishgan yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagida yoshlardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon, o'z ishining yetuk mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtni obod, farovon etishlariga ishongan. Chunki jadidlarning o'zlarini ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolarini, fikr-g'oyalari, turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi.

Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka,

taraqqiyotga intilish, yoshlarni,

butun xalq ommasini shunga

da'vat etish g'oyalari umrlarining

oxirigacha yetakchi fikr

bo'lib qoldi. Har qanday og'ir

sharoitda ular o'z qarashlarini

o'zgartirmadi.

Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlaridan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinlikni, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan, chor hukumati mustamlakasidan qutqarishga bel bog'lab, ko'p sa'y-harakatlari qilgan. Ularning yoshlar manfaatini himoya qilish, jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli sharoitlarni yaratish borasidagi fikrlari bugungi mustaqil O'zbekiston uchun ham dolzarb. Zero barcha zamonlarda ham yoshlar hal qiluvchi kuch rolini o'ynagan.

**Podpolkovnik Azimjon MAJITOVA,  
podpolkovnik Mirzo RAJABOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchilar**



# "Har bir fuqaro qalban



Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida harbiy xizmat mashaqqatlarini boshidan o'tkazgan faxriylarning ibratli hayat yo'lini keng yoritish va targ'ib etish orqali yoshlarning vatanparvarlik tuyug'ularini yanada yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.



Suhbatdoshimiz – umrini yurt himoyasiga bag'ishlagan inson, tajribali va jonkuyar ustoz, Chegara qo'shinlari faxriy qo'mondoni general-polkovnik Tursunov Hikmatulla Ko'chqorovich.

**- Harbiylik bu katta sharaf va shu bilan birga ulkan mas'uliyat sanaladi, bu yo'lda ko'p dovonlarni bosib o'tdingiz, katta kasbiy va hayotiy tajribangiz bor. Qolaversa, sohaning kecha va bugunini taqqoslash imkoniyatiga egasiz. Sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash borasidagi ishlarning davriy taraqqiyot bosqichlari, xususan sizning rahbarligingizda amalga oshirilgan ishlар xususida so'zlab bersangiz.**

– Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, Vatan – ostonadan boshlanadi. Yurt sarhadlarining daxlisligini ishonchli qo'riqlash va himoya qilish esa chegarachilarining sharafli vazifasi. Bugun chegarachi deganda ko'z o'ngimizda yurtini jonidan ortiq sevgan, har qarich tuprog'ini muqaddas bilib, sarhadida mag'rur, sergak turgan, o'z burchini sidqidildan, yuksak mas'uliyat bilan bajarib, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini saqlash yo'lida butun borlig'in baxshida etishga, kerak bo'lsa, jonfido qilishga tayyor turgan o'g'lonlar qiyofasi gavdalanganadi. Men ana shunday mardi maydonlar safida turib, ularga boshchilik qilish baxtiga muyassar bo'lganimdan faxrlanaman!

Albatta, u vaqtlar davlatimiz chegaralarini bugungidek zamонави axborot texnologiyalari, muhandis-tehnik qo'riqlov vositalari bilan jihozlanmagan, delimitatsiya va demarkatsiya ishlari yakunlanmagan murakkab davrlar edi. O'z-o'zidan bunday vaziyatda xizmatni olib borish oson kechmadi. Qo'shni davlatlarda yuz bergan keskinliklar bizning faoliyatimizga ham o'z ta'sirini

o'tkazmay qolmasdi. Biroq har qanday sharoitda o'z burchiga sadoqatli o'g'lonlarimizning fidoyi xizmatlari evaziga bugungi osoyishta, yorug' kunlarga yetib keldi.

Qo'mondonlik davrimda Chegara qo'shinlaridagi mavjud tuzilmalarni yanada takomillashtirish va isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. O'sha davrlarda faqat qo'shni Afg'oniston bilan davlat chegaralarimizning ishonchli qo'riqlovi tashkil etilgan bo'lib, qolgan hududlarda hali ancha ishlar amalga oshirilishi zarur edi. Bunday sharoitda, eng avvalo, Chegara qo'shinlari faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kash etardi.

Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash konsepsiysi tasdiqlandi. Konsepsiya muvofiq, Chegara qo'shinlarining yangi tashkiliy tuzilmasi belgilandi. Boshqaruva va moddiy-tehnik ta'minot tizimi qayta ko'rib chiqilib, zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi natijasida, 1997-yildan e'tiboran Chegara qo'shinlarini alohida, maqsadli moliyalashtirish tizimi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, konsepsiya asosida "Janub" operativ yo'nalishi bo'yicha birinchi mintaqaviy shtab tashkil etilib,

uning vakolat doirasasi kengaytirildi. Surxondaryo viloyatidagi markazga bo'ysunuvchi Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'linmalari mazkur mintaqaviy shtab tasarrufiga o'tkazildi.

Shu yillarda Mikroelektronika instituti bilan hamkorlikda "Surxon" elektrosignalizatsion majmuasi ishlab chiqilib, davlat chegarasining tegishli hududlari ushbu majmua bilan jihozlandi.

Ma'lumki, davlatimiz chegaralari nafaqat tekisliklar, balki piyoda va avtovositalardan harakatlanish qiyin bo'lgan tog'li, qir-adirli hududlarni kesib o'tadi. Mazkur nuqtalarda davlat chegarasini nazorat qilishda birmuncha qiyinchiliklar yuzaga kelgani bois chegarachilarga qulaylik yaratish maqsadida 1996-1997-yillarda Chegara qo'shinlari tarkibida otliq bo'linmalar tashkil etildi.

Qo'shni Tojikiston bilan chegaradosh hududlarda xizmat olib boruvchi shaxsiy tarkib uchun esa munosib xizmat sharoitlarini yaratish maqsadida Surxondaryo viloyatining "Gulbahor" aholi yashash punktidan to Farg'ona viloyatining "Sho'rsuv" aholi yashash punktiga qadar harbiy shaharchalar, chegara zastavalari va otryadlarini barpo etish bo'yicha ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.



# chegarachi bo'lsa..."



1997-yidan e'tiboran "Sharq" mintaqaviy shtabini shakllantirishga kirishildi. Shu yili rahbariyatning qaroriga ko'ra, Chegara qo'shinlari tarkibida Aeroportlarni qo'riqlash brigadasi tashkil etildi.

Chegara qo'shinlari, hamkor kuch tuzilmalari hamda tegishli vazirlik va idoralar vakillari ishtirotkida chegaraoldi hududlarida osoyishtalikni ta'minlash, davlat chegarasini buzib o'tgan noqonuniy qurollangan tuzilmalarni qo'lga olish hamda zararsizlantirish bo'yicha birlgiligidagi yirik masshtabi qo'mondonlik-shtab o'quvlari o'tkazildi. Vazirlar Mahkamasingning qaroriga asosan, Chegara qo'shinlariiga ko'maklashuvchi "Chegara posbonlari" otryadlari tuzilib, ularga chegaraoldi hududlarida yashovchi vatanparvar fuqarolar qabul qilindi.

Harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy holatini yaxshilash, ma'naviy olamini boyitish hamda madaniy tadbirlarni sifatlari tashkillashtirish maqsadida 1996-yilda Chegara qo'shinlari bosh boshqarmasi tarkibida harbiy orkestr tashkil etildi.

Albatta, bugun ortga boqib, bosib o'tilgan mashaqqatli yo'lga nazar solar ekanman, o'sha vaqtarda imkoniyat darajasidan kelib chiqib, ko'p islohotlarni amalga oshirishga erishdik, deya bemalol aya olaman. Ayni damda davlatimiz rahbariyatining sohaga qaratayotgan

yuksak e'tibori, shuningdek Chegara qo'shinlari tobora rivojlanib, taraqqiy etishi uchun ko'plab fidoyi, jonkuyar insonlar tomonidan olib borilayotgan samarali mehnatlar evaziga, harbiylar va ularning oila a'zolari uchun yaratilayotgan sharoitlar tobora yaxshilanib bormoqda. Biz islohotlar hamisha bardavom bo'lishini tilab qolamiz.

Shu o'rinda jangovar-xizmat vazifalarini bajarish chog'ida halok bo'lgan qahramon o'g'onlariimizning jasoratlarini doim yodda tutishimiz kerakligini eslatib o'tmoqchiman. Zero bugungi osoyishta, tinch va yorug' kunlarga yetib kelishimiz uchun ular o'z hayotlarini qurban qilgan. Buni hamisha qadrashimiz kerak.

**- Chegara qo'shinlarida faxriy ustozlar ishtirotkida "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib boryapti. Ushbu uchrashuvlardan olayotgan taassurotlaringiz haqida o'rtoqlashsangiz.**

- Bunday egzu tadbirlarning bosh tashabbuskorasi davlatimiz rahbarining o'zlar ekanlarini alohida ta'kidlashni istardim. Xususan, joriy yilda o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda aynan faxriy ustozlarning tajribasiga tayanish

muhimligi haqida to'xtalib, tegishli vazifalarni belgilab berdi. Ana shu topshiriqlarning ijrosi sifatida DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan muntazam ravishda "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. Mazkur keng qamrovli uchrashuvlar doirasida biz Surxondaryo viloyatida bo'lib, janubiy sarhadlarimizni qo'riqlayotgan harbiylarning xizmat sharoitlari va turmush tarzi bilan yaqindan tanishdik, davra suhbatlarini o'tkazib, o'z hayotiy tajribamiz bilan o'rtoqlashdik.

Mamlakatimizdagi tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini kafolatlash borasida harbiy xizmatchilarining jangovar ruhi, intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish, har qanday ziddiyat va qarama-qarshiliklarning asl mazmun-mohiyatini yaxshish tushunishlariga erishish uchun yoshlarimiz doim o'z ustida ishlashi, jamoaviy birodarlikni yanada mustahkamlashlari lozimligini, shu bilan birga, har bir chegarachi yaxshi siyosatchi, iqtisodchi va diplomat bo'lmog'i kerakligini, ijtimoiy hayotni ziyraklik bilan tushungan holda zamonamiz va jamiyatimizning faol shaxsi hamda chin ma'nodagi vatanparvariga aylanmog'i shartligini tushuntirishga harakat qildik.

Termiz shahridagi "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyi hamda Qurolli Kuchlar akademiyasidagi qalbi qaynoq, shijoatlari yoshlar bilan ko'rishib, suhbatlashganimizda esa biz boshlagan ishlar hali ko'p yillar bardavom bo'lismiga to'liq ishonch hosil qildik.

Kuni kecha Farg'ona viloyatining So'x va Shohimardonida bo'ldik. Albatta,

taassurotlarimiz juda ijobji. Chunki o'zgarishlar, yangilanishlar ko'lami keng. O'zbekiston va Qirg'iziston davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi bilan ikki qardosh davlatlar chegarasi orqali o'tkazish tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar alohida e'tirofga sazovor. Chegarachilar va ularning oila a'zoliga yaratilayotgan shart-sharoitlarni aytmaysizmi?! Bunday e'tibordan harbiylarning mammun ekanlari yuzko'zlaridan shundoq ko'rinih turibdi.

**- Yuqorida siz yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida gapirib o'tdingiz. Siz uchun Vatan tuyg'usi o'zi nimalarda namoyon bo'ladı?**

- Men 1955-yilda Toshkent viloyatida tug'ilganman. Otam Qo'chqorboy Tursunboy o'g'li va onam Qumixon Hakimvoy qizi 12 nafar farzandni kamolga yetkazdi. Otam biror marta bizga qattiq gapirib, urushmagan bo'lsada, ularning salobatlaridan hayiqar edik. Onam umrlari davomida ayollarimizga xos bo'lgan tikish-bichish ishlari bilan shug'ullangan. O'zlar kamtar, oddiy inson bo'lsada, ota-onamiz bizning tahsilimizga juda katta e'tibor qaratishgan. Musiqa maktabida o'qib, estetik didimiz shakllangan. Buning uchun ulardan juda minnatdorman. Garchi boshqa sohani tanlagan bo'lsanda, san'atga oshnolik hayotimda juda katta yordam bergan. Chunki harbiylilik ham, rahbarlik ham katta bir san'at, aslida.

Bu so'zlarni aytishimning boisiga Vatan deganda ana shu o'zim tug'ilib o'sgan maskan, ota-onam va yaqinlarim ko'z oldimiga keladi. Shu go'zal diyorda dunyoga kelganim – mening katta baxtim. Bu baxtni har bir inson his qila olishi, ayniqsa yoshlarimiz qadralashi kerak. Vatanning tinchligini ko'z qorachig'idek asrash – har birimizning farzandlik burchimiz. Zero bugun dunyo va mintaqamizdagи harbiy-siyosiy vaziyat, tinchlikka, xavfsizlikka qaratilayotgan turli tahdidlar hech kimga sir emas. Bularning barchasi bizni uyg'oqlikka chaqirib, ham ma'nan, ham ruhan tobplashi kerak.

Xavfsizlik esa, avvalo, davlat chegarasidan boshlanadi. To'g'ri, chegaralarimiz daxsizligini ta'minlash ishiga mas'ul harbiylarimiz zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanih, tun-u kun uzlusiz jangovar-xizmat faoliyatini olib bormoqda. Harbiy qismlarga safarlarimiz chog'ida bunga shaxsan guvoh bo'lyapmiz. Ammo men istardimki, faqatgina harbiylarning kuchiga tayanib qolmasdan, shu yurtning har bir fuqarosi qalban chegarachi bo'lsa, Vatanni asrashni o'z burchi, mas'uliyati deb bilsa, tinchligimiz yanada mustahkam bo'ladi va Yangi O'zbekistonimiz sarhadlari osoyishtaligini barchamiz birgalikda ta'minlaymiz.

**- Oolangiz haqida ham gapirib bersangiz.**

- Olam, mening kuch-quvvat manbayim. Turmush o'rtog'im Donoxon bilan birlgilikda salkam 45 yilda buyon umr kechirib kelyapmiz. Juda o'qimishli, serg'ayrat, iste'dodli va sabrli aylol. Kasbi pediatr. Ko'plab kitoblar muallifi, grantlar sohibasi. Hanuzgacha tinib-tinchimaydi. Temur va Ravshanbek ismli ikki o'g'ilni birlgilikda tarbiyaladik, nabiralarimiz bor. Bugun farzandlarimiz el xizmatida. Aslida insonning eng katta baxti – bu uni tushunadigan, hamisha qo'llab-quvvatlab, umr yo'llarida hammaslak bo'la oladigan hamrohining borligida. Men barcha davomchilarimizga ana shunday farovon oila va baxtli turmush nasib etishini tilab qolaman!

**- Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat!**

**Mayor Farida BOBOJONOVA suhbatalashdi.**

Chjang Chyan Markaziy Osiyoda bo'lib, mintaqadagi yo'llar, mamlakatlar va xalqlar haqida ma'lumot to'plagan Xitoyning ilk rasmiy davlat elchisidir. U safardan qaytganidan keyin borgan joylari va ko'rghanlari haqidagi ma'lumotlar saroy tarixchilari tomonidan rasmiy tarixga kiritilgan. Ushbu ma'lumotlar "Tarixiy xotiralar" nomli yirik asarning "Chjang Chyanning tarjimayi holi" va "Farg'ona tazkirasi" nomli boblarida uchraydi.

# FARG'ONANING SAMOVIY TULPORLARI

## professor Aflat Xo'jayevning "Buyuk ipak yo'lli" asaridan



### MILODDAN AVVALGI

asrlarda Xan sulolasi taxtida o'tirgan U-di qaytadan xunlar tazyiqiga tushib qolmaslik uchun "yovni yov qo'li bilan yo'q qilish" siyosatini amalga oshirishga kirishdi. O'tmishda xunlar bilan jangda mag'lubiyatga uchrab, Amudaryo bo'ylariga ko'chib ketishga majbur bo'lgan g'uzlar bilan aloqa bog'lash maqsadida 138-yilda Chjang Chyanni kelib chiqishi xunlardan bo'lgan tarjimon Tangyi Ganfu hamrohligida ulug' g'uzlar yurtiga elchi qilib jo'natadi.

### YO'LGA CHIQQAN

elchi ko'p yurmasdan Krurona mamlakatida xunlar qo'liga tushadi. Manbalarga ko'ra, bola-chaqalik bo'lsa o'z maqsadidan qaytadi, degan fikr bilan Chjang Chyanni mahalliy ayollardan biriga uylantirishadi. O'n yil o'tgandan so'ng nazoratning susayganidan foydalanib, Xitoy elchisi tutqunlikdan qochib, ulug' g'uzlar yurtiga yo'l oladi.

U o'n kun yo'l yurib, Farg'onaga yetib boradi. Farg'ona xoni elchini yaxshi kutib oladi va uni Kangkiya davlatiga, Kangkiya davlati esa Chjang Chyanni ulug' g'uzlar davlatiga yetib olishiga ko'maklashadi. Vaqt o'tib o'z yurtiga qaytgan Xitoy elchisi hukmdoriga quyidagi ma'lumotlarni yetkazadi.

"Farg'ona, Kan, Arshak (Anshi, Parfiya)lar katta mamlakat. Ularda g'aroyib narsalar ko'p. Xalqi o'troqlashgan. Ularning shimalida Dayuejilar bilan Kangkiya davlatlari bor, harbiy quadrati nisbatan kuchli". Bu va boshqa ma'lumotlarni eshitgan xoqon mamlakati hududini kengaytirish maqsadida bu o'lkalarga elchi jo'natish uchun farmon beradi.

**SHU TARIQA** ko'plab elchilarning Markaziy Osiyoga bordi-keldisi bilan bu mamlakatlar aholisi, iqtisodiyoti, madaniyati va urf-odatlari haqida Xitoyda avvalgidan ham ko'proq ma'lumotlar to'planadi. Biroq U-di o'z maqsadiga erisha olmaydi.

**TURKISTON VA XITOY** o'rtasidagi ot savdosi Chjang Chyanning Farg'onaga kelishi va bu yerda arg'umoq otlarni ko'rishi bilan bog'liq. Bungacha xitoyliklar foydalangan otlar asosan, Mo'g'ulistonidan olib kelingan. Bu otlar keng

yag'rinli, oyoqlari kaltaroq, bo'yi pastroq bo'lib, judayam chopqir bo'lmagan.

Elchining Farg'onada ko'rgan otlari tezlik va uzoqqa chopishda mo'g'ul otlaridan katta farq qilib, uning hayratini oshiradi. Shu bois u bu arg'umoqlarni parvarishlash va boqish usullari bilan jiddiy tanishadi. U Chan'anga qaytganidan keyin Farg'onaning afsonaviy otlari va ularning yemishi bo'lgan beda o'simligi haqida ko'rigan-bilgani, to'plagan ma'lumotlarini o'z hukmdoriga taqdim etadi. Elchisining gaplarini eshitgan xoqon o'z qo'shinlarini mazkur tulporlar bilan ta'minlash va jango varligini bir necha barobarga oshirish rejasini tuzadi. Farg'onaga katta boylik bilan elchi jo'natadi. Elchilarni izzat bilan kutib olgan farg'onaliklar bir-ikki ot sovg'a qilish bilan cheklanib, ko'p miqdorda ot sotishga rozilik bermaydi.

### MILODDAN

**AVVALGI** 104-yilda U-di Farg'onaga Li Guangli qo'mondonligidagi katta qo'shin yuborib, arg'umoq otlarni berishga majbur qilmoqchi bo'ladi. Lekin birinchi marta Farg'onaga yuborilgan qo'shin maqsadiga erisha olmay, O'zgandan ortga qaytadi. Mag'lubiyatdan qattiq ranjigan xoqon Farg'onaga yanayam ko'proq qo'shin jo'natadi, ammo ikkinchi yurish ham kutilgan natijani bermaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, miloddan avvalgi 102-yildagi urinishda Li Guangli ayrim ma'lumotlarga ko'ra 14 ta, boshqa bir ma'lumotga ko'ra 30 dan ortiq ot olib qaytishga muvaffaq bo'ladi. Xitoya zotdor otlar ana shu davrdan boshlab paydo bo'la boshlagan.

### O'SHA ZAMONDA

bitta salt otning bahosi 100 tilla, bitta yuk tashiydigan yoki aravaga qo'shiladigan otning bahosi esa 5 ming tanga bo'lgan. Ayrim davrlarda otning narxi nihoyatda baland bo'lgan. Jumladan, miloddan avvalgi 93-yilda miniladigan bitta otning narxi 150 ming tangaga qadar yetgan. Ot narxi bilan ipak mato narxini solishtirganda, arzonchilik bo'lgan yillari eng arzon ot sotib olish uchun 8-9 bo'lak ipak mato sarflash lozim bo'lgan. Miniladigan ot uchun esa kamida 200 bo'lak ipak mato sarflash kerak edi.

O'sha davrlarda ot tez harakat qiluvchi quadratli jango var harbiy kuchning asosi hisoblanar edi. Bu borada Davan, ya'ni hozirgi Farg'onaning "Osmon tulporlari" – arg'umoqlar Xitoya juda mashhur bo'lib, unga talab juda katta bo'lgan. Sababi shuki, o'sha davrda qaysi davlat yoki xalqning "Osmon tulporlari" dan iborat otliq qo'shini bo'lsa, shular kuchli hisoblangan. Shu tufayli ot nihoyatda aziz va qimmatbaho savdo moli hisoblangan.

### BUYUK XITOV

**DEVORI** ham "Osmon tulporlari" va uning chavandozlari hujumiga qarshi barpo etilgani manbalarda qayd etiladi. Chin mamlakatingin hokimi Chin Shixuangdi (mil.av. 246-208) uchqur otlar bilan qurollangan va ot ustida chopib ketayotib o'q-yoy otishga mohir bo'lgan turkiy xalqlarning hujumlarini to'sishning bordan bir yo'li shimoliy chegara bo'yab ot o'tolmaydigan darajada baland devor qurish deb bilgan edi. Va uning qarori bilan uzunligi 5 ming kilometrni tashkil qiluvchi Buyuk Xitoy devori barpo etildi. Portlatuvchi qurollarning paydo bo'lishiga qadar bu devorlar mustahkam himoya vazifasini bajargan.

### O'RTA ASRLARDA

turkiy xalqlar vakillari Xitoya ot sotish uchun chiqqanlarida kamida 3-4 ming ot haydar borgan. Qiziq bir ma'lumot: 735-yilda turkiylar Xitoya 15 mingta ot sotgan, shunda ushbu otlar evaziga to'lash uchun mamlakatdagi ipak matolar yetmay qolgan ekan.

### UYG'URLAR

**TOMONIDAN** 830-yilda Xitoya sotilgan otlar evaziga hukumat 230 ming bo'lak ipak mato to'lagan. Ko'p hollarda ipak yetmasdan ular otlarni qarzga sotib olgan. Manbalarga ko'ra, 780-yilga kelib, Tan sulolasining uyg'urlarga bo'lgan qarzning umumiyligi miqdori 1,08 million ipak matoni tashkil qilgan. Shundan keyin Tan sulolasi ushbu qarzning bir qismi uchun 100 ming lyang (1 lyang 37,3 gramm) oltin bergan. Sotib olingan otlarning barchasi deyarli harbiy maqsadlarda ishlataligan.

**Furqat ERGASHEV**  
tayyorladi.

Keling, kitob o'qiyimiz!

# TURON

## malikalari

### TARIXIY ASARLARDA



O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida taniqli adiba Shahodat Isaxonovaning Turon malikalari turkumida yaratgan "Sulton Jaloliddin Manguberdi", "Bibixonim", "Gavharshod begin", "Nadirayi davron yoxud amirning tavqi la'nat to'ni" tarixiy asarlari taqdimoti bo'lib o'tdi. Taqdimotda so'zga chiqqan adabiyotshunos olimlar, adiblar-u shoirlar, muxlislari yozuvchimizning yoshi haqida "Ayollarda yosh bo'lmaydi..." deya lutf qilgan bo'lsalar ham, dilbar ijodkorining 75 yoshni qarshilaganlarini bilganidan keyin hayratga tushdim, havaslandim. Ayniqsa, Yozuvchilar uyushmasi tomonidan ehtirom bilan kiydirilgan zarbof libos va do'ppida opaning yanada yosharib ketganlariga guvoh mehmonlar gulduros olqishlar bilan o'z hayratlarini ifodaladilar.

Sevimli adibamizning asarlari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan. Tarixiy asarlар shunchaki dunyoga kelmaydi. Ularni yaratish uchun ko'pdan ko'p manbalardan xabardor bo'lish, o'qish, tahlil qila bilish, xulosalar chiqara bilish talab etiladi. Donolarning aytishlariga qaraganda, tarix o'zgarmas ekan, tarixga nisbatan bizning qarashlarimiz o'zgarar ekan. Qahramon bilganimiz xoin, xoin bilganimiz qahramon chiqishi ana shu qarashlar mahsulidir.

Turonzamin tarixida, sultanatlar boshqaruvida malikalar ham muhim o'rinn tutganlar. Xorazmshohlar malikasi Turkon Xotunni eslang! Sharafli taqdir-la siylangan, ayanchli yakun... Uni bizga ko'proq qora bo'yoqlarda

tanitadilar. Murakkab shaxs. Ayrim manbalarda ilm-ma'rifatga, ilm odamlariga e'tibori yuksak bo'lganligi e'tirof etiladi.

Tarixiy asarlari o'z o'quvchilarini topishi oson emas. Turon malikalari turkumidagi tarixiy asarlari esa o'z o'quvchisini tez topdi. Malikalar hayoti, ularning tarixda qoldirgan o'chmas izlari hech kimni beparvo qoldirmasa kerak. Bolaligimda tarix darsligini sevib o'qirdim. Qadimgi dunyo tarixi juda qiziqarli tayyorlangan edi-da. Rivoyatlar ham, tarixiy hujjatlar ham bolalarga tushunarli tarzda bayon qilingan. O'sha davrda yurtimiz tarixiga oid deyarli hech narsa yodimda qolmagan. Qiziqarli tariximiz yo'q ekan-da, degan xayolga borganman. Bo'lmasa, Shahrabszda necha yuz yillardan beri muhtasham Oqsaroq qad rostlab turadi. Uning ham muhtasham va sharafli tarix ekanini o'qimagan, anglamagan ekanman. Chunki men u davrlarda ko'proq o'qiganlarimga ishonar edim. Va uning qurilishi, sohibqiron Amir Temurning zavjaiy muhtaramasi Saroymulxonim bilan bog'liq afsonalarni ishonqiramay tinglaganman. Bu borada bugungi kun yoshlari biz, katta avloddan har tomonlama omadliroqdir. Sha'n-shavkatli tariximiz haqida istalganicha asl ma'lumotlarni topish mumkin.

Shahodat Isaxonovaning Turon malikalari hayotidan yozilgan asarlari tarix haqidagi bilimlarni boyitishga hissa qo'shami. Yo'q, yo'q, biz badiiy asarni ilmiy manbagaga tenglashtirish fikridan yiroqmiz. Ammo ishonamizki, bu asarlari malikalar shaxsiga muhabbatni, qiziqishni orttiradi, malikalar shaxsi esa shohlar, sultonlar, amirlar, xonlar, aniqrog'i yurtimiz tarixiga daxldordir. Bu qiziqish va muhabbat asl manbalarni o'rganishga da'vat etadi.

Is'hoqxon Junaydulloxoja o'g'li Ibrat qalamiga mansub "Tarixi Farg'ona" asari xalqimizning qimmatli yozma yodgorliklardan biri sanaladi. Bu kabi bebafo asarlari mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida nashr etilgan. "Tarixi Farg'ona" 1916-yilda yozilgan. Oradan yuz yildan ko'proq vaqt o'tdi. O'zbek adabiy tilida o'zgarishlar kechdi. Bugungi kun o'quvchilariga mazkur asarni anglash birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shuningdek, ayrim marsiyalar, nazmiy parchalar tarjima qilinmagan. Ammo mukammal izohlangan.

Zukko o'quvchilarimizni Ibrat qoldirgan qimmatli yozma yodgorlik bilan Shahodat Isaxonovaning tarixiy asarlari o'rtasida qanday bog'liqlik borligi taajubga solishi mumkin. Yuqorida aytib o'tganimizdek, tarixiy asarlari yuksak badiiyat bilan yaratilsada, vaziyatni anglatish uchun badiiy to'qimalarga murojaat qilinsa-da, tarixiy haqiqatlardan tamoman chekinmaydi. Asosida o'sha muzaffar kunlar nash'u namolari, fojalari aks etib turadi.

"Tarixi Farg'ona" dan o'qiyimiz:

"Muhammad Alixoni Muhammad Amin degan murohiq o'g'li va zavjasи va oyimini va yaqin joriya - hammasini suydurub, avvalda Muhammad Alixoni suydurub, andin so'ng Muhammad Amin degan o'g'lini so'yganda, murohiq (balog'atga yetmagan) xonzodaga anosi betoqat bo'lub, munga qarab, anosiga vidolashib, oh-u fig'onda turganda, mazluma onasi so'yiladurgan yerga borib, bir ko'zi o'g'lida va bir ko'zi amirni tarafiga haqorat qilib: "Ey zolim, sanga osiy bo'lgan atosi, bu murohiqi begunoh nima qildi? Ey berahm zolim, qizil qonga bo'yading, Xudoning oldida sening ila murofaa qilaman, sen ham nuri chashmingdan ajrab, xonavayron bo'lub, qizil qoning'a bo'yal, xonadoningdan ajrab, xarob bo'!!" deb alfozi qabiha va shani'alar ilon og'zig'a nima kelsa qaytar may, amirni hech pisand qilmay turganda, yaqinlarini hammasini suydurgon ekan".

Tarixning eng qora, qonli sahifasi... xon barobarida xonadoni ahli, go'daklarning qatl etilishi, oyimlarning qatl etilishi... Nodirayi davron qatl...

**O'qiyimiz:** "1841-yilning noyabr oyida... Buxoro amiri Nasrullo Qo'onni bosib oladi va Sultan Mahmudxon, Muhammad Ali, Mohlar oyim (Nodira) va boshqalarni qatl etadi".

Aziz o'quvchi, siz asar nomlanishiga e'tibor berdingizmi? Shahodat Isaxonova mazkur asarini "Nadirayi davron yoxud amirning tavqi la'nat to'ni" deb nomlagan. Amir ham tavqi la'natdan to'n kiyishi mumkinmi?! U qanday tavqi la'nat edi?

**O'qiyimiz:** "Baland, shohona devorlar bilan o'ralgan ulkan va mahobatlari qasr fayzsiz va ko'rimsiz bir ahvolga tushib qolgan, kattagina bog'chadan iborat marmar hovuzli hovlining g'ishtin yo'laklari ajriq bosganidan g'ishtlari yarim-yorti ko'rinaridi. Bog'dagi dov-daraxtlar deyarli kuzalmagan, g'ovlab ketgan shoxlarining ba'zilari shamol va qor ta'sirida sinib tushganicha, tarvaqaylab yotardi. Ostiga to'kilgan barg-xazonlar supurilgan bo'lsa ham, olinmay, har yerda uyulganicha, xuddi mozordagi eski qabrlar kabi do'mpayib turardi".

Ha, qachonlardir bu hovlida hayot qaynardi. Bu xonodon bekasi o'g'li Olimxon sharafiga xonoyim deya e'zozlanardi. Umarxon jannatmakonning og'asi... Umarxon tomonidan o'ldirilgan, uch o'g'lini ham qo'shib...

**O'qiyimiz:** "- Pushaymonmen, malikam... - Umarxon boshini xontaxtaga urib, yig'lab yubordi. - Pushaymonmen!

- Oh... bul pushaymonlik dodoyollar-u oh-vohlar, ko'z yoshlari birlan yuvilsa koshki erdi, - Nodira begin boshini nadomat bilan chayqadi, - aning to'lovi, tovoni og'ir bo'lador?! Yo Rab! O'zing kechir! O'shal kuni ammaginam ne deb qarg'aganini eslaysizmu?

- Eslaymen, malikam... Har kuni eslayment! Eslamasam, unutsam koshki erdi...

- Yo Alloh, o'shal nolalar hamon quloglarim ostinda

jaranglayotir! "Menga bul kunni ravo ko'rganlarning o'zlarini ham, surriyotlari ham qirchininda qiyilsun" deb duysi bad etgan erdilar-a!

- Ha, qirchinimda qiyilmoq fursati yetdi, shekilli, kecha tabilalar bedavo dardga mutbalo bo'lganimni so'ylashdi..."

Qarg'ish qo'rqnichli narsa. Qarg'ishdan qo'rquvimiz bolalikdan ongimizga quylganidan bo'lsa, ehtimol. Bolalik... daryoga yaqin dala yo'lining shundoqning yoqasida poliz bor edi. O'zi shu tomonlarda kalta-kulta yerlar ko'p bo'lib, qovuntarvuz ekilardi. Handalak va qovunlarning xushbo'ylari uzoqlarga taralardi. Yo'l yoqasidagi bu polizga birorta bola bo'yamasdi. "Egasi yomon, qarg'aydi..." deb, hamma aylanib o'tishga harakat qilardi. Tiriqtirib quvishlar, hay-haylagan lalmi do'qlardan qo'rmasdik, qarg'ishdan qo'rardik.

Shahodat Isaxonovaning har bitta tarixiy asari xususida to'xtlib o'tishning imkoniy yo'q. Zero Yozuvchilar uyushmasida adabiyotimiz sinchilari ularga munosib bahoni berib bo'ldilar. Biz shunchaki siz, aziz o'quvchilarimizni bu go'zal asarlardan boxabar qilyapmiz. Mazkur tarixiy asarlar ustasining qo'liga tushsa, dunyo sevib tomosha qilgan turklarning "Muhtasham yuz yil"idan ham muhtashamroq film yaralishi shubhasiz!

Qanchalik haqiqat ekanini bilmadim-u, sevimli adibamizning navbatdagi tarixiy asari temuriy malikalarimizdan yana biri Zebunnisoga bag'ishlanar emish. Yana bir mukammal roman dunyo yuzini ko'rsa, ajab emas. Omad tilaymiz.

So'zimizni "Nadirayi davron yoxud amirning tavqi la'nat to'ni"dan parcha bilan yukanlaymiz:

"- Sen yaxshisi, Xo'qand xonligi ustidan qozonilgan g'alabamiz haqinda go'zal bir "Zafarnoma" yoz!

- Tilim, tilim, tilimdur, tildin tanam tilimdur... - amirning gapidan rangi oqarib ketgan Hoziq qo'lidi daftarni shosha-pisha naycha qilib o'rab, cho'ntagiga soldi...

Hoziq bir lahza taraddudlanib turdi-da, so'ng ilojsizligini his qilib, atrofga jonsaraklik bilan ko'z tashladi. Davradagilar ham hozir biror fojia yuz beradiganday qo'rquv qalqan nigochlariunga tikib olishgan edi. Hoziq cho'ntagidan daftarni oldi.

To'n kiydingiz tavq-u la'natdin bul dam,

Yechmog'ingiz mushkul qiyomatda ham...

O'tirganlar "oh" deb yuborishdi. Nasrullohxonning rangi bo'z tusga kirdi. U oldida turgan oltin ko'zani otmoqni mo'ljalladimi, dastasidan shart ushlab ko'tardi. Ko'za ichidagi sharob bilaklariga to'kildi.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan,

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"



# “BERLIN” dan “OQQO’RG’ON” gacha qanday tarix bor?

“Berlin – Oqqo’rg’on” (rejissyor Zulfiqor Musoqov, 2018) filmida urush mavzusidagi o’zbek badiiy filmlari tarixida ilk marotaba urusholdi va urush yillaridagi siyosiy-mafkuraviy qarashlar hamda ularning jamiyat hayotiga ta’sirini mustaqil pozitsiyadan turib mushohada qilishga, bu davrdagi turli toifaga mansub insonlar qismatini ko’rsatish orqali tarixiy haqiqatlarni yetkazishga urinish amalga oshirilgan. Buni yuzaga chiqarish vositasi sifatida muhim siyosiy shaxslar hisoblangan davlat va jamoat arboblari tanlab olingen.

Ayniqsa, jahon tarixidagi ikki yirik shaxs – Adolf Gitler hamda Iosif Stalin obrazlarining voqealar ishtirokchisi o’rnida talqin etilgani mustaqillik davri o’zbek kinosida tashlangan dadil odimlardan bo’ldi. Chunki ular timsolidu urush arafasida jahon siyosati maydonida kechgan ulkan jarayonlarni taftish etishga intilish kuzatiladi. Masalan, Gitlerning Rudolf Gess, Genrix Gimmler va Yozef Gebbels bilan suhbatini aks ettirish orqali Stalin siyosati va shaxsi to’g’risida ayrim haqiqatlarni yetkazish maqsad qilingan. Gitler tomonidan “Sovet xalqining Stalinga munosabati qanday?” deb berilgan savolga javob berar ekan, Gimmler “Stalin Rossiyada Germaniyaga nisbatan o’n baravar ortiq konslagerlar qurdigani. Sovet xalqi undan nafratlanadi va qo’rqadi” deya aniq fikr bildiradi. Sobiq Ittifoqda konslagerlarning natsistlar davlatnikidan o’n karra ko’proq bo’lganiga urg’u berilishi Stalin tuzumining repressiv xarakterini ifodalash bilan birga, o’sha davrdagi qatag’on siyosatini eslatib o’tadi, qolaversa, xalqning qo’rquvdaligini alohida ta’kidlash orqali siyosiy tazyiq va ta’qiblar qanchalik kuchli bosim bilan amalga oshirilganiga urg’u berilgan. Stalining 1939-yil 21-avgustda Vyacheslav Molotov (*Skrabin*) bilan qurgan suhbatida esa SSRning hali urushga tayyor emasligi, Gitler bilan tenglashish uchun yana kamida ikki-uch yil talab etilishi ma’lum qilinganki, bu ham bo’lsa urush arafasidagi sobiq Ittifoqning ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-texnik imkoniyatlari cheklanganligi bilan bog’liq ma’lumotni yetkazgan. Filmda har ikkala diktatorning siyosiy qarashlari orqali urush yillaridagi siyosiy jarayonlar tahsil etib borilgan.

E’tiborli jihat, filmda urusholdi va urush yillaridagi fojialarga, xalq boshiga tushgan musibatlarga faqat fashistik g’oya tarafdarlari aybdor degan bироqlama munosabat emas, balki sobiq Ittifoqda yoritilgan qattiq siyosatning ham kuchli ta’siri bo’lgani o’rinli epizodlar orqali ochib berilgan. Nodira Norboyeva (N. Karimboyeva ijrosida)

oilasi bilan kechgan voqealar shunga misol. Nodira va uning qizi Gulshodani xalq dashmanining oilasi sifatida avvaliga chekka qishloqqa, keyinroq esa Rossiyaning olis hududlaridan biriga jazo o’tash uchun yuborilishi va baxtli tasodif tufayligina (*Nodiraning Stalinga yo’llagan maktubi ijobji ko’rib chiqiladi*) ozodlikka chiqarilishi orqali urush yillari oddiy odamlarga nisbatan kuchli siyosiy tazyiq o’tkazilgani, oqibatda minglab oilalar parokanda bo’lib ketgani ayonlashadi. Ikkinchidan tomondan esa urush yillaridagi siyosat, hatto ziyoilarni ham ayamagani mashhur teatr arbobi Meyerxoldning qamoqxonada otib tashlanish epizodi orqali olib berilgan. Bundan tashqari, filmda shaxsga sig’inishning oddiy xalq tafakkuriga qanchalik chuqur singdirilganini yorituvchi epizodlar ham film mazmunini boyitgan. Jumladan, qishloq maydonchasida sahnalashtirilgan spektaklda Stalin rolidagi aktyorni ko’rib, tomoshaga yig’ilganlarning barchasi – yosh-u qari, ayol-u erkak xuddi qarshisida haqiqiy Stalin turgandek haya jondan qotib qolishi va o’z “dohiyulari”ni olqishlab, ko’klarga ko’tarishi, hatto ko’ziga yosh olib, qo’llaridagi bor-budini Stalinga – aktyorga berishi zamirida sobiq Ittifoqda yoritilgan siyosatning ayancli manzarasi aks etgan. Xaloyiq yoppasiga Stalin – aktyor bilan bor-yo’gi qo’l berib ko’rishish uchun mahtal bo’lib turgan paytda, bu holatni chetdan kuzatayotgan Norboyevaning yirik planda tasvirlanishi ham o’ziga xos kontrast hosil qilib, xalq olqishlayotgan Stalining o’zi ana shu xalqning yuz minglab vakillarini dushmanlikda ayblab, qanchadan qancha begunoh oilalar yostig’ini quritganiga nozik ishora beradi.

Agar sovet davrida urush mavzusida ishlangan o’zbek badiiy filmlarida natsistlar harakati, asosan sovet kishisining ularga bo’lgan munosabati, ular haqda aytganlari va ta’riflari fonida anglashilgan bo’lsa, “Berlin – Oqqo’rg’on” filmi orqali bu stereotipga nuqta qo’yilib, dashman tarafning vakillari ham alohida shaxs, alohida taqdir egasi va alohida qahramon sifatida olib chiqildi. Auditoriyaga gitlerchilarining nimalar haqida fikrlagan, orzu-istiklari va rejalarini ularning o’z tillaridan yetkazildi.

Xususan, filming asosiy syujet chiziqlaridan birini tashkil etuvchi Klaus Kyostling hayoti misolida beg’ubor nemis bolakayining qanday qilib yovuz fashistik aylanish jarayonlari xronologik tarzda olib berilgan. Klaus obrazi orqali, bir tomonidan, oddiy nemis xalqi vakillarining natsistlar safiga qo’shilish omillari ko’rsatilsa, ikkinchidan, urush insonlarning sof tuyg’ularini, o’zaro mehr-muhabbatlarini ham shafqatsizlik bilan o’chirib tashlagani aks ettirilgan. Klausning biografiyasi 1928-yildan, hali u beg’ubor bolakay bo’lgan chog’laridan, yahudiy qo’shni qizcha bilan birga ulg’ayish pallasidan boshlab tasvirlangan. Klaus har safar eshikdan mo’ralab, ro’paradagi yahudiy qo’shni qiz bilan nigohlarini to’qnashtirganda oradan yillar o’tib borayotgani ularning ulg’aygan qiyofalari va 1928, 1930, 1933-

yili degan izohli yozuvlardan bilinadi. Albatta, filmda Klausning aynan yahudiy qiz bilan birga ulg’ayishi va keyinchalik unga ko’ngil qo’yishi beziz tanlanmagan. Bu bilan, birinchidan, natsistik mafkura va urush tufayli millatlar o’rtasidagi birdamlik va sevgi-muhabbatga chek qo’yligani yoritilgan bo’lsa, ikkinchidan, qo’shni qiz orgali yahudiylarning qanchalik tahqirlangani hamda fojaviy tarzda qirg’in qilingani olib berilgan, uchinchidan esa natsistlar va urush Klaus singari oqko’ngil yigitlarni ham vahshiy qotilga aylantirgani, ularni qanchalik tubanlashtirgani yetkazilgan. Mana shu uchala omil ikkiti epizod orqali yaqqol namoyon bo’lgan.

Birinchini epizodda 1933-yili Klaus sinfdoshlari bilan yahudiy muallimidan musiqa darsini olayotganda natsist askarlarining xonaga kirib kelishi va yahudiy bo’lgani uchun muallimni tahqirlashlari ko’rsatilgan. Ular bolalarga muallimni “Iflos yahudiy cho’chqasan”, deb so’kishga buyuradi, biroq birkina Klaus ularga qo’shilmaydi, uning yuz ifodasidan noroziligi sezilib turadi. Bunday munosabati uchun natsist askari tomonidan qistovga olinganda Klaus reyx-kanselyarida xizmat qiladigan dadasiga shikoyat qilishini aytadi, muallimi yonini olib, uning hech qayerga ketmasligini baralla ta’kidlaydi. Klausning dadasi qayerda ishlashini eshitgach, natsistlar boshqa biror so’z demay, chiqib ketishadi. Mana shu epizodda Klausning insonparvarligi, qalbida nohaqlikka qarshi isyon borligi, hali fashistik g’oyalari ta’siriga berilmagan ko’rinadi, ayniqsa yahudiy muallimini himoya qilishi, uning or-nomusi uchun natsistlarga qarshi turishi Klausdagi eng oliyjanob sifatlarni yuzaga chiqargan.

Ikkinci epizodda esa mutlaqo teskari manzara. Voqealar 1940-yili Polshada, ya’ni oldingi epizoddan yetti yil o’tib sodir bo’ladi. Natsistlar boshlig’i cherkovda yashiringan yahudiy oilasini aniqlaydi, bu oila Klaus bilan bir umr yonma-yon yashab kelgan yahudiy oila bo’lib chiqadi, ularning orasida Klausdan homilador qo’shni qiz ham bor edi. Natsistlar boshlig’i tanish bo’lgani uchun ularni tinchitishni ayni Klausga buyuradi, u esa hech ikkilanmay, ularni o’z qo’llari bilan otib tashlaydi. Mazkur epizoddagi Klaus bilan birinchini epizoddagi sofildi o’spirin Klaus o’rtasida yer bilan osmonchalik farq borligi yaqqol ko’rinadi. Natsistlar harbiy kiyimdagini Klausda endi zarracha rahm-shafqat hissi qolmagan, hatto o’z surriyotini ko’tarib yurgan aylonli ham tap tortmay o’ldirishga qodir kimsaga aylangan. Bir-biriga kontrast ushbu epizodlar nafaqat natsistlarning nemis yoshlarini fashistga aylantirish oqibatlarini, balki dashman obrazining individual sifatlarni, natsistik g’oyalarning amaldagi fojialarini ham ochib beradi.

“Berlin – Oqqo’rg’on” filmda urush mavzusini yoritish bo’yicha noodati, o’ziga xos shakl tanlangan. Dastlabki epizoddayoq muallif urush bilan bog’liq turfa xotiralarini quroqqa o’xshatar ekan, buni bevosita film uchun tanlangan

shaklga ishora sifatida qabul qilish mumkin. Chindan ham, film voqealarini bir qarashda anchayin tarqoq va turli xronologiyaga qurilgan quroqqa o’xshash har xil epizodlardan iboratdek ko’rinadi. Biroq film voqealarini aniq kompozitsiyali yaxlit syujetga qurilgan. Shunchaki filmda mustaqil tuzilmaga ega, ammo mantiqan bir-biriga bog’langan uchta liniya mavjudligi sabab voqealar avvaliga biroz chalkashday tuyulishi mumkin.

Film umum kompozitsiyasini tashkil etuvchi birinchi liniyani “Rahbariyat liniyasi” deyish o’rinli. Bu liniyaga ikki davlat – fashistlar Germaniyasiga taalluqli Adolf Gitler, Genrix Gimmler, Yozef Gebbels, Rudolf Ges, German Gerringsdan iborat guruh vakillarini hamda SSSR rahbariyatiga kiruvchi Iosif Stalin, Maksim Litvinov, Aleksandr Poskryobishev, Vyacheslav Molotov (*Skrabin*) singari shaxslar obrazi yoritilgan syujet tarmog’ini kiritish mumkin. Ikkinci liniya “Ziyolilar liniyasi” bo’lib, unda Vsevolod Meyerxold, Mixail Chexov, Zinayida Ray, Maryam Yoqubova kabi ziyozi insonlar taqdiri o’rin olgan. Nihoyat, uchinchi liniyani “Oddiy xalq” tashkil etib, unda Qo’zivoy Shodiyev va Klaus Kyostling oilasi bilan bog’langan voqealar yoritiladi.


Mana shu uchala – “Rahbariyat”, “Ziyolilar” va “Oddiy xalq” liniyalari film voqealarini davomida o’zaro kesishib, bir-birini taqozo etuvchi yaxlit syujet zanjiriga aylangan. Film uchun tanlangan bunday shakl urush yillaridagi jarayonlarni turli qatlama va doiralar misolida keng qamrab olish imkoniyatini bergen. Shu sabab filmda urushni alanga oldirgan Berlindagi yirik siyosatchilardan tortib, Oqqo’rg’onga o’xshash chekka qishloqlarda yashovchi Qo’zivoy singari oddiy insonlar obrazini uchratamiz. Film nomlanishi zamiridagi ma’no ham aslida Berlindan Oqqo’rg’ongacha yetib borgan urushning ko’lamni va mohiyatiga ishora qilib, urushdan hech kim omon qolmasligiga o’zaro kesishgan turli taqdirlar misolida urg’u beradi.

O’tmish voqealarining bugungi kun bilan bevosita bog’lanishi esa film dramaturgiyasida bir qancha parallel leytmotiv chiziqlarni hoslil qilgan. Shulardan biri “qasos olish” syujet tarmog’i bo’lib, Klaus tomonidan otib tashlangan yahudiy oilaning taqdir taqozosi bilan tirk qolgan a’zosi tarafidan qartaygan Klausdan o’ch olinishi hisoblanadi. Klaus obrazining bugungi kun bilan bog’lanishi film voqealarini tarixda bo’lib o’tgan hodisa sifatida chetdan turib emas, balki zamondosh qahramonlar hayotida kechgan va bugungi kunda ham o’z ta’sirini ko’rsatayotgan real jarayonlar sifatida qabul qilishga undaydi. Filmda “xalq dashmani”ning oilasi sifatida jazoga tortilgan Gulshoda va onasi bilan bog’liq voqealar, frontda snayperchi bo’lib xizmat qilgan va fashistlar dodini bergen Qo’zivoyning hayotida yuz bergan hodisalar (*tog’asining dashmanlar tomonidan bo’laklab tashlanganiga guvoh bo’lishi, “xalq dashmani” oilasining boshiga tushgan ko’rgiliklariga sherik bo’lishi*) ham ana shunday alohida syujet chiziqlarini tashkil etgan. Qolaversa, “xalq dashmani”ga chiqarilgan odamning ayoli bilan qizini garchi ular qattiq nazorat ostida bo’lsa-da, o’zbek oilasi tomonidan iliq kutib olinishi va ularga nisbatan bir oila sifatida qaralishi o’zbek xalqiga xos mentalitet sifatida aks etgan.

“Berlin – Oqqo’rg’on”ni Ikkinchini jahon urushi mavzusida mustaqillik davrida yaratilgan eng ko’lamli, keng ma’noli va mavzuga chuqur kirishga intilgan film sifatida baholash o’rinli.

**Aziz MATYAKUBOV,  
san’atshunos**

Esse



Dunyog'a kelib loyig'a bilmay bota qoldim,  
Darmon yo'qidin necha og'iz so'z sota qoldim.

**Devonayi MASHRAB**

Gi de Mopassan "Azizim" romanida Dyurua "Afrika o'qchisining xotiralarini"ni yoza boshlab, ikkinchi urinishda "Jazoir – oppoq shahar..." deydi-yu, undan keyingi jumlanı nima deb yozish ustida bosh qotiradi. Men ham "Ishtixon – xotirjamlik kasaliga yo'liqqan va bu xotirjamlikning ortida ming bitta behalovat tasvirlar ko'milib yotibdi..." deb qo'ya qolsammi, deya ko'p o'yladim. Biroq ichimni yemirayotgan o'ylar ichimda qolib ketar ekan. Shu sababdan gapni ko'chadagi sayr chog'ida kuzgi mezonlardek yuzlarimga changal soladigan xayollardan hamda bu xayollarning hayotiy tasvirlaridan boshlashga qaror qildim.

Ko'chaning ikki yonida qator tizilib turadigan do'kon, sartaroshxona, shifoxona, tikuvxonalar va hokazo... xonalardan iborat bir-ikki qavatlari imoratlarni yo'ldan ajratib turadigan ariqchalardan kun qizigan sayin ko'tariladigan qo'lansa hidni, yoningdan g'ir-g'ir o'tayotgan temir tulporlarni, o'z dardi bilan qovurilib yashayotgan shaharchaning shovqinini pisand etmaysan-u, uning tor va qorong'i oshxonalariga bosh suqishing bilan, go'yo kalamush qiyofasiga kirasan kishi. Hozirgina o'zingni hammadan yuqori olgan bo'lsang, goh yerto'lagi, goh quyosh nuri yo'qlamagan xonalarga tanda qo'yib mog'or bosgan stol-stullar qarshisida insoniyatning eng past tabaqasiga aylanganingni o'zing bilmay qolasan.

Kayolingga qayerdandir Murod Muhammad Do'stning "Galatepaga qaytish"i keladi-yu, garangsib qo'shni stoldagi odamlarning gap-so'zlariga quloq tutasan. Ular shunchalar "aqli gaplar" aytib, hirinlaganda o'z kelajagingga ham shubhalanib qaraysan va ular timsolida ertangi ahvolning jonlantirib ko'rasan. Balki, uch stol narida ayolni o'z savollari bilan bezor qilayotgan bolakay o'sha "G'aybarov" emasmikin. G'aybarov taxminan shunday savollar berardi "...bu tepaliklarning ostida nima bor?" Agar yodimdan ko'tarilmagan bo'lsa, "Bu tepaliklarning ostida odamlar bor!" deyan javob olardi bolakay...

Yo'q, shoshilmang, men sizni shunchaki ushbu esseni o'qishga majbur etmoqchi emasman va siz bunga majbur ham emassiz. Deyl Karnegi kitobining boshida shunday deydi: "Agar bu dastur sizga hech qanday ko'mak bermasa, uni duch kelgan tomonga uloqtirib yuboring!" Demak, siz hech qachon foydadan xoli emassiz va bunga sizning ko'zga ko'rinnmas xudbinligingiz yo'l qo'ymaydi. Yana donishmand xalqimiz aytadiki, "Nimani eksang, shuni o'rasan", aslo sizga ta'na toshini otmoqchi emasman. Yoki siz tug'ilib o'sgan mana shu kichkinagina, o'zining hayot tashvishlari qobig'iga o'ralib yotgan shaharni ham kamsitmoqchi emasman, zero bu yerni kamsitib ham bo'lmaydi. Axir unga oid ma'lumotlar VI-VIII asrlarda yozib qoldirilgan Xitoy manbalariga borib taqaladi. Xitoyliklar Ishtixonni "Sao" deb yuritgani ham hech kimga sir emas. Shunday ekan, borini boricha aytmochiman.

Katta shaharlardan bu yerga ikki kun mehmon bo'lib kelish boshqa-yu, bir umrlik bo'lib qaytish boshqa-yu, ikki kunga kelgan odam uning faqatgina toza havosi, ko'rinishidan bemalolxo'ja, soddadil odamlarning suhabatidan voqif bo'ladi. Ikkinchisi esa o'sha odamlarning biriga aylanadi va ularning u qadar sodda emasligini, hayotlari esa xuddi tilla zanjirini yo'qotib qo'yanayolning kuyib-pishgan ahvoliga o'xshashini anglab yetadi. (Buni anglash uchun Aflatun bo'lish shart emas!) Chunki mo'g'ullar bosqiniga qadar bu shahar juda mahobatga ega olti darvozalik shahriston maqomiga erishib, uning xonlari o'zlarining nomini mis tanga pullariga zarb ettirgan. Demak, bu shuhuratbozlik bizning qonimizda ham aylanib, vaqt-vaqt bilan o'z asoratlarini ko'rsatadi.

Yuqoridagi gapimiz chala qolgan edi. Albatta, bu "Galatepaga

qaytish"ning o'zginasi (XVII asr oxirlarida shahar batamom buzilib, uning o'rniida kichik qishloqlar hosil bo'lgan, bu degani son-sanoqsiz insonlarning qoni shu tuproqqa singib ketgadir). Nimqorong'i tamaddixonadagi sarmast kimsalar go'yo butun davlat miqyosidagi masalani hal qilayotgandek chekadilar, biroq bu olomon aslida g'iybatdan nari o'tmayotganini bilib qolsa bormi? Ularning bu suhbatlari hech qachon yakunlanmaydi, zero bu suhbatlarning boshlang'ich nuqtasi ham bo'lмагan. Masalan: muallimni hokim so'kibdi yoki falon amaldor quyushqondan chiqib ketyapti... Bu gurung o'z isbotini ham topmay, millionlar labida aylanib-aylanib, keyingi xuddi o'ziga o'xshagan gurungga o'rnini bo'shatib beradi. Bunga o'xshash masalani davlat miqyosida hal etadigan ODAMLAR esa buni hech kimga aytib o'tirmaydi.

Mavlono Rumi "Ichindagi ichindadir" (Fih mo fih)da shunday yozadi: "Ulug' Olloh Boyazida: "Ey Boyazid! Nima istaysan?" deya amr etadi. Boyazid: "Hech narsa istamaslikni istayman", deydi".

Biz-chi? Doimiy istaklarimizning qarshisida nima istayotganimizni ham bilmay, tilimizga kelgan gapni aytta boshlaganmiz. To'rt stol naridagi odamning gapiga quloq tutib, bu odam ancha-muncha bilimli, mana shu bilan suhbatlashsang arziydi, deb o'zingga taskin berasan. Biroq uning juda chiroyli hayot haqidagi falsafalarining so'nggi nuqtasi molni qashlashning foydali jihatlariga kelib qadalganda xuddi o'lim to'shagida onasining dod-voylaridan jon taslim qilomagan jannati odam voldasining qo'lidan bir siltab: "Bo'ldi qil, ona! Men jannatiman, meni yo'ldan qaytarma!" deya do'zaxi bo'lib qolganidek ahvolga tushasan kishi.

Qaysidir bir kitobda: "Biz qullar ozodligi uchun kurashardik, matbuotlarda solishib-olishib yotardik, biroq qullar ozodlik, erkinlik nima ekanini tushunmas edi", deb yozilgandi. To'g'ri, bu jumlanı bizning xalqimizga qo'llash noo'rin, ammo kitob o'qish uchun qonun joriy etilmasa, kitob o'qimaydigan odamlarga yana nima ham deyish mumkin?

Shaharchada qayta ta'mirlash va qurilish ishlari avjiga chiqqanda qadimgi zindon topildi, unda odam suyaklari ustma-ust yotardi (balki, bizning zamонимизгача yetib kelgan eng namunali yodgorlikdir shu! Yana bilmadim, aniq ma'lumot topilmadi). Gohida boshing qotadi, ularning qay biri gunohkor-u, qaysi begunoh? (Bunga aniq javob yo'q) Faqat shuni aytish mumkinki, ular bu zindondan chiqishni xayollariga keltirmagan, faqat gurung qilgan va zamondan nolishdan nariga o'tmagan.

Bu shaharda shunday xotirjamlik kezib yuradi: u avvaliga senga xushomad qiladi, namchil yemakxonalarga yetaklaydi, so'ngra qorningga joylashib olib, kundan kun kattalashib boradi. Sen esa oshqozoningdag'i xotirjamlikni boqish uchun barcha yuksak orzulardan voz kecha boshlaysan. U kattalashib borganı sari sen ulkan xotirjamlik erishasan. Ammo bu xotirjamlik avliyo va nabiyalar erishgan xotirjamlik bo'lsa qaniydi... yo'q, bu nafsning "zurriyot'i.

Kun bo'yi shu xayollar bilan shaharda turtinib-surinib ko'cha kezish odamni toliqtirib yuboradi. Sarxush paytingda miyangga qadalgan o'ylaringning bangi devonanikidek urug'laridan unib chiqqan nihollar o'z hisolini berib, nimalar deb aljirayotganining

tahlil etolmaysan va yaqinlaring sendan ranjiydi. To'g'ri-da, ular sening shu yerlik bo'lishningi astoydil xohlaydi (ya'ni zindonda gap-gashtak qilib o'tirsalar bo'lgani). Sen esa ularga chetdan qarashga o'rganib qolgansan va ularning har bir harakatlarini, turmush tarzini mushohada qilishga mukkangandan ketgansan. Ularda ayb yo'q! Ular – qadimgi zindonbandlarning avlod. Ular – qadimgi mis tangaga o'z nomini soldirgan xonlarning avlod. Ular – mo'g'ul bosqinida yo'q bo'lib ketish arafasiga kelib, yana bosh tuta olgan bechora-miskinlarning, jabrdiydalarning avlod. Sen esa gunohkorsan, sen avlodlaring yo'lini tutishni xohlamay, o'zga yo'q qidirib ovorasan.

\*\*\*

Bizning oilada avloddan avlodga meros bo'lgan vasiyat bor. Bu – bobomning alamli vasiyati. Uch avlod naridagi hofiz Juman bobom o'ziga to'q kishilardan bo'lib, soz chalib, qo'shiq kuylagan. Uning muxlisi ko'p bo'lgan, bozordan qaytgan atrofdagi hamqishloqlar bobom hovlisidagi basavlat besh chinorning ostiga qo'nib, boshlarini chayqab-chayqab ashula tinglagen. So'ng Miyonqol orolida vabo tarqagan. Uch qiz va bir o'g'ildan iborat oiladan faqat bobom – Eshonqul sag'ir omon qolgan. Otasi o'limi oldidan unga: "Uyni tashlab ketma!" deb vasiyat qilgan. O'n yoshidan sag'ir qolgan bobom ocharchilik zamoni sho'rpeshonalaracha qarshi olgan. Eshakni minib, yelkasiga quroq osib, dala-dashtdan tergan o'tinini novvoyga nonga almashib, kun ko'ra boshlagan.

Orada kolxzoz tashkil etilib, taqdirda tan bergen bobom dalada javlon ura boshlagan. O'risning maqtoviga uchgan rais Juman hofizning sag'iriga qamchi tushirib qoladi. Shunda taqdirming qamchilaridan to'yib ketgan bobom qamchini shartta ushlab, o'ziga tortadi-da, raisni otdan tushirib oladi. So'ng ko'zida qalqib turgan "dengiz"ni chayqatmay, g'azab bilan: "Sen meni sag'ir bilib qamchi urding! Men bolalarimni odam etib tarbiyalayman, o'qitaman, olim qilaman va ular sening avlodingga qamchi solib o'tadi!" deydi. Va bu vasiyatdan menin farzandlarim ham boxabar.

Gohida bobomga tekkan qamching o'rig'i mening yelkamga ko'chib, hayotga qasd qilaman. Borligimni isbotlashga kirishaman. Hayotimni qayta boshlayman.

Buni mening avlodim qiyomatgacha unutmasin!

\*\*\*

Bir tanishim shunday deydi:

– Do'stim! Agar uzoq va yaxshi yashamoqchi bo'lsang, bilarmonlik qilma!


Balki, uning gapida jon bordir. Men kim bo'libmanki, bu shaharning g'amsiz kimsalariga g'am chekish lazzat, deb safsata sotaman. Vaholanki, arabning dunyoga mashhur ertaklari jamlanmasi bo'l mish "Ming bir kecha"ning beshinchi kechasida Shahrizoda Ro'yon hakim haqida ertak so'yaydi. Shunda Ro'yon hakim tomonidan bir she'r aytildi, shu she'r so'ngso'z bo'la qolsin:

...Nasihat yo'lidan yiroqroqqa qoch,  
Kimki qochar, unga men yormen.  
Nasihat qilurmen yana noiloj,  
O'zim bu baloga giriftoren.

**Bek ALI**

(Ishtixon. 2018-yil 31-mart)

YELKAMDAGI QAMCHI



# NOTAVON

(voqeiy hikoya)

Katta shaharning mashhur kiyim bozori.  
Necha minglab xaridorlarga xizmat ko'rsatayotgan yuzlab do'konlarni bir kunda aylanib chiqish amrimahol. Xilma-xil yemaklarni xaridorlarga ilinib turgan kattakichik tamaddixonalar-u yo'l yuzida savdo qilayotgan "kep qoling, op qoling" larning sanog'i yo'q.

Chumoli yanglig' har tomonga harakatlanayotgan odamlar oqimida men ham do'konlar tomon intilaman. Yo'lnetidagi necha tur narsalar-u ne'matlarga nazar tashlab borar ekanman, "Qora qo'chqorning dumbasidan qilingan somsalarni yemabsiz, bu dunyoga kelmabsiz! Somsalarga kep qoling!" degan tovush qulog'imga tanish tuyuldi. Beixtiyor o'sha tomonga qaradim. Qaradim-u, joyimda qotdim. "O'sha men bilgan g'ururla va qat'iyatlari harbiy xizmatchi - Muxtorbekmi? Qanday qilib u?..". Xayolim poyoniga yetmay, menden yigirma-yigirma besh metr uzoqlikda "mol"iga berilib xaridor chaqirayotgan yigit termilib turganimni sezgandek men tomonga qaradi. Nigohlarimiz to'qnashdi. To'qnashdi-yu, kutilmaganda ko'zlarini olib gochdi. "Nahotki Muxtorbek bo'lsa? Balki, aka-ukasidir, balki, egizagi bo'lgandir?" Taxminimni aniqlash uchun o'sha tomonga qarab yurdim.

Odamlar orasida turtina-turtina somsa sotayotgan yigit tomon yaqinlashdim. Uning xaridor chorlovi tin olgandek bo'ldi va zum o'tmay, ingichkaraoq ovozdagi boshqa yigit atrofdagilarga zo'r berib somsaning ta'rif-u tavsifini keltirishga tutindi. Bu orada men uning qoshida turardim.

- Keling, opa, bizning somsa bozorda bitta, super. Mol go'shtligidan beraymi, qo'y go'shtligidan?

- Uzr, menga hozirgina shu yerda somsa sotib turgan yigit kerak edi.

- Yigit?

- Ha, sheringiz bo'lsa kerak. Muxtorbek.

- Haaa, Muxtormi? Orqa tomonga o'tib ketdi, - bosh barmog'in orqaga niqtob, astoydil tushuntirdi va: - Muxtorming kimi bo'lasiz? - menga bosh-oyoq sinchkov nazar tashladi u.

- Tanishi, - javobni qisqa qildim va meni taajjubga solgan holatning javobini bilishga oshiqdim. - U harbiy xizmatchi bo'lgan, shundaymi?

- Harbiy xizmatchi? - ensasi qotib yuzimga qaradi.

- Ha, serjant. Menimcha, xizmatdan voz kechib, bozorga o'tgan bo'lsa kerak.



- O'y lab gapiryapsizmi, opa, harbiylikka yaqinlashib bo'lmaydi-ku, shunday ishdan voz kechib, bozorda somsa sotadimi? "Tembolee" serjant bo'lgan, deyapsiz.

- Men ham shunga hayronman. Harbiy qismida hurmati baland yigitlardan edi, - o'zimga o'zim gapirgandek hamon hayratimni yashira olmasdim. - To'g'ri, shunday kasbdan ketib...

- "Koneeshna", - endi o'zingga kelding degandek fikrimni "o'z tili"da davom ettirib ketdi u. - Muxtor hech qachon harbiy bo'lgan, men bunga "sto protsent" kafilmam.

Somsa sotayotgan yigit oldida qancha turib qoldim, bilmadim.

- Opa, xaridorlarimning yo'lini to'sib qo'yyapsiz, chetroq tursangiz, yaxshi bo'lardi, - uning tanbehi va quoqni qomatga keltiruvchi "Uylanmagan, qora qo'chqorning go'sht-u dumbasidan bo'lgan somsalarga kep qoling!" degan xaridor chorlovidan o'zimga keldim.

\*\*\*

Yashash manzilim harbiy qism yonginasida joylashgani uchun har tong ishga ketayotib, xizmatga shoshilayotgan harbiy xizmatchilarga duch kelaman.

Qaddi-basti tik, harbiy libos yarashgan, jiddiy qiyofadagi Vatan posbonlariga beixtiyor havas qilasan, kishi. Men kabi o'g'illari voyaga yetayotgan onalar esa farzandlari ular kabi bo'lishini yurakdan orzu qiladi. Ayniqsa, duch kelganda salomini kanda qilmaydigan, harbiy libos yarashgan, alpdek qomatidan tortib qadam tashlashiga qadar kasbidan faxrlanishi sezilib turgan qat'iyatlari Muxtorbek men uchun o'g'illarim o'rnak olsa arziyidigan yigitlardan edi.

Buning yana bir sababi o'qituvchi bo'lganim uchun sindrahabari sifatida vatanparvarlik mavzusidagi tadbirga harbiy xizmatchilarini taklif qilish uchun harbiy qism qo'mondonligiga murojaat qildim. Ular iltimosimni ijobji hal qildi. Tadbirda qatnashgan ofitserlar qatorida serjant Muxtorjon Mardonov ham bor edi. O'shanda uning kasbiga bo'lgan muhabbat, sohanay yaxshi o'zlashtirgani, suxandonlik ila o'quvchilarini bir zumda o'ziga jalb qilganiga guvoh bo'lganman. Shu sabab o'g'illarimga tanbeh berganda ham, nasihat qilganda ham, albatta Muxtorbekni misol qilib ko'satar, o'shandek qat'iyatlari, kasbiga munosib yigit bo'lislari qayta-qayta ta'kidlar edim.

Biroq keyinchalik Muxtorbek ko'rinmay qoldi. "Xizmat joyi o'zgargan bo'lsa kerak. Qayerda bo'lsa ham, omad yor bo'lsin. Bunday o'g'lonlar elimiz faxri", xayoldan o'tkazib qo'yardim ba'zida. Bugun esa uni bozorda somsa sotayotganini ko'rib, kayfiyatim tushib ketdi. Sarobga duch kelgan, oq bilan qoraning farqiga bormagan, o'qituvchi bo'la turib, odam ajratishga ojiz kimsadek kalovlanib qoldim.

Ertasigayoq buning tagiga yetish uchun harbiy qismga yo'l oldim... \*\*\*

- Serjant Mardonov, sizni har doim shaxsiy tarkibga o'rnat qilib ko'rsatib kelganimiz. Oila, xizmatda, hayotda munosib o'rın topayotgan edingiz. Bunday nosog'lom, harbiy xizmatchi sha'nini bulg'aydigan yo'lga qachon kirib ulgurdingiz?

Harbiy qism komandiri xonasida boshini egib o'tirgan Muxtorbek uning jo'yali tanbehiga javob qaytarishga ojiz edi.

- Bu sharmandali holatni siz qanday izohlaysiz, mayor Po'latov? Qo'l ostingizdagi harbiy

xizmatchi yaqin bir yildan buyon oilasini deyarli qarovsiz qoldirib, axloqsiz ayol bilan yashab yursa-yu, siz bexabar bo'sangiz! Safdosh do'stlari-chi? Ularning ko'zi qayoqda edi?! Haqiqiy do'st degani uming nomaqbul xatti-harakatining oldini olib, noto'g'ri yo'ldan ortga qaytarmaydim? Agar serjant Mardonovning otasi kelib, bu haqda xabar bermaganida tashqarida - el orasida harbiy xizmatchi sha'nii bulg'anib, axloqsizlik tamg'asi bosilib yuraverarmidi? Xizmatdan keyin harbiy libosda oilasiga emas, axloq-odob qoidalariga zid ravishda o'ziga munosib bo'lgan ayloning uyiga borib yashab yursa... Bu nima degan gap?!

Mayor Po'latov, serjant Mardonovning turmush o'rtoq'i erining yurish-turishi haqida qism qo'mondonligiga

biror marotaba

murojaat qilganmi? Balki, oilaviy bordi-keldisi bor yaqin safdoshiga dilini yorib, yordam so'ragandir?

- O'rtoq polkovnik, serjant Mardonovning xotini tomonidan bunday murojaat bo'lgan. U bilan suhbatlashganimizda, ayoli: "Agar bu haqda bildirsam, erining ustidan arz qilgan sabrsiz ayol bo'lub qolardim, sha'niga yaxshi gap aytildi. Ins of berib, ortga qaytishini kutdim", dedi.

- Haa... bizning ayollar sabr-bardoshli. Erining xiyonatini ichiga yutib, farzandlarining yetim ulg'ayishini istamagan. Oxiri bo'lganach, qaynon-qaynotasidan yordam so'ragan. Erining iflos qiliqlariga chidagan o'sha ayolga rahmat. Ammo yara gazak olmasidan oldini olganida, bizga murojaat qilganida, yanada yaxshi bo'lardi.

Xo'sh, serjant Mardonov, sha'nингизни bulg'agan bu holatni qanday izohlaysiz? Adashganingizni tan olasizmi?

Muxtorbek boshini eggan ko'yi bir nuqtaga tikilgancha jum qotib turar, uning ma'nosiz nigohida pushaymonlik sezilmasdi.

- Serjant Mardonov, o'rtoq polkovnik sizdan javob kutyapti. Xizmat faoliyatining mana shu javobingizga bog'liq.

Mayor Po'latovning tanbehidan so'ng:

- O'rtoq polkovnik, oilamga qaytib, hayotimni izga solishga harakat qilaman, - degan sado chiqdi yigitdan.

- Bu harbiy xizmatchining javobi emas, harbiy xizmatchi harakat qilmaydi, bajaradi!

- qism komandirining qat'iy buyrug'i yangradi: - Mayor Po'latov, serjant Mardonovga, uning guruh komandiriga va sizga qattiq xayfsan e'lon qilinadi. Serjant Mardonovga

oilasiga qaytib, hayotini izga solib olishi uchun uch kun muhlat. Uning xizmat faoliyati, oilaviy hayoti, yurish-turishi haqida menga muntazam axborot berib turasiz. Aslida, bunday axloqsiz harbiy xizmatchilarga oramizda aslo o'r'in yo'q. Ammo ko'ziga yosh to'lib turgan keksa ota-onasi, andishali, sabrli turmush o'rtoq'i va o'g'il-qizi uchun bir marotaba imkon beriladi unga. Buyruq bajarilsin!

- Xo'p bo'ladi, o'rtoq polkovnik!

Muxtorjon ertasiga oilasiga qaytdi. Xotini Laylo va farzandlariga begonadek tund muomala qilayotgan yigit otanasi oldida bo'lishga majbur edi.

- Uzoq yo'l bosib kelganimizga bir hafta bo'ldi, o'g'lim, - asta o'zini bosib so'z boshladi Turob aka. - Nahot, otanangni ham ko'rging kelmasa? Xizmatdagi o'rtoqlaringga necha bor xabar berdim, kelmading. Shundan so'ng komandiringga uchrashga majbur bo'ldim. Harbiy bo'lganingga yaqinlaringdan tortib qishloq ahliga qadar quvongandi. Hamma senga havas qilardi. Suygan qizingga uyladik, o'g'ling bor, qizing bor. Davlatimiz shunday chiroyli uylarda yashashingga sharoit yaratib beribdi. Nima yetishmayapti senga, bolam, yana nima kerak?

Turob akaning gapidan xotini Xursanoy opa yig'lab yubordi.

- O'g'lim, sizlarni peshona teri bilan, mehnatning ichida qiyinalib katta qilgandik, - yalinchoq ohangda so'z boshladi onaizor.

- Aka-ukalarining ichida sen boshqacha eding, senga ko'proq ishonardik. Bu nima qilganing, bolam? Ko'zingni och. Yosh xotining, bolalarigni tashlab, o'zingdan yoshi katta, bozorchi xotin bilan yashab yuranganing nimasi? Bu oilamiz sha'niga isnod-ku, o'g'lim!

- Ko'z yoshingni yig'ishtir, undan ko'ra o'g'lingga Xudodan insof tila, - ko'zlar ma'nosiz, jim turgan o'g'lining yuziga qarab, nafrati qo'zidi otaning. - Bizni, oilangni desang, shaytoniy yo'ldan qaytib, avvalgi oriyatlari, g'ayratli, oilaparvar Muxtorbekka aylanasan! Bo'lmasa, sendek bolamiz yo'q!

Turob akaning so'nggi so'zidan Xursanoy opaga qo'shilib Laylo ham yig'lab yubordi. O'n va sakkiz yoshlarda, ota mehriga muhtoj o'g'il-qizi onalarining pinjiga tiqildi. Ammo axloqsizlik girdobida o'zligini unutgan notavon o'g'ildan sado chiqmadi...

\*\*\*

Katta shaharning mashhur kiyim bozori. Oftoba qorayib ketgan, soqoli o'sgan, egnidagi kiyimiga ter aralash somsa hidi unnab qolgan bo'ychan, ozg'in yigit: "Kep qoling, op qoling", deya moliga xaridor chorlayapti. Harbiy libosdagi, ko'rkm va qat'iyatlari Muxtorbekni ko'rgan inson borki, bu holda uni darhol taniy olmasligi aniq. Harbiy xizmatdan haydalib, ota-onasining qarg'ishini olib, oilasidan ayrilgan irodasiz yigitni uzoqdan kuzatar ekanman, lablarim beixtiyor shivirlaydi: "Notavon, notavon..."

Zulfiya YUNUSOVA

# YAXSHI SO'ZNING quadrati

Ertalab uydan chiqayotib, pastdan qattiq-quruq tovushlarni eshitdim. Birinchi qavatda eshiklari ro'parama-ro'para bo'lgan ikki qo'shniyo'lakni supurmaganlikda bir-birini ayblardi. Zinapoyada to'xtab qoldim. Uya qaytib kiray desam, ishga kechikaman. Pastga tushay desam, ikkoviymen to'xtatib, "dardi"ni to'kib soladi (*ilgari bunday holatlar ko'p bo'lgan*). Boshim qotdi. Janjal anchaga cho'zildi, ikkovi uy-uyiga kirib ketgandan so'ng shoshib yo'lga tushdim. Shu kuni ishim ham unmadi, ertalabki dilxiralik ruhiyatimga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi.

"Janjallardan chetga qoch, yaxhilarga ergashib, yomonlardan uzoq yur. Halol rizq topsang, sog'lom bo'lasan, qanoat qilsang, xotirjam yashaysan. O'zgalarga baxt tilasang, o'zingga ham qaytadi. Har narsada me'yorni saqla, parhezkor bo'l", deyilgan Tibet donishmandlarining o'gitilarida. O'qiganlarim bolalikda Zulfizar momom aytg'an hikmatlarni yodga soladi. "O'zingga shukr", degan so'zni she'r qilib yodlab olgan momoni hovlisida o'rmakda gilam to'qigan kezlarini tomosha qilgani borardik. Qo'li ishden, og'zi gapdan bo'shamasdi, maqol-matallarga usta edi. Bizga: "Aslo urishmanglar, qanoatlari bo'linglar, odamlar bir-biriga yaxshilik qilishi, to'g'ri yashab, halol pul topishi kerak, bu muqaddas kitobda ham yozilgan", der edi.

Balki, eshitgandirsiz, yaponiyalik tadqiqotchi Masaru Emoto maxsus tajriba o'tkazib, suvning ham xotirasini borligini isbotladi. Uning aniqlashicha, suv "ko'radi", "eshitadi" va "ta'sirlanadi". Demak, biz ichadigan suv tirik biologik mavjudot ekan! Yapon olimi ikki stakanga toza suv soladi, so'ng idishlarning biriga qarab, jahl chiqqanda tilga olinadigan so'zlarini aytadi, yana biriga mehr bilan tikilib, yaxshi gaplarni pichirlaydi. Keyin elektron mikroskop yordamida suv kristallarini suratga oladi. Yaxshi so'zni "eshitgan" idishdagi suv xuddi nilufar guli kabi chiroyli shaklda kristallahgan, yomon so'zdan "ta'sirlangan" idishdagi suv kristallari esa aksincha, bulutdek qo'ng'ir tusli, ko'proq loy parchasiga o'xshash. Qarang-a, oddiy suvimiraytig'an yaxshi yomon so'zni o'z xotirasiga joylarkan! Inson

tanasing yetmish foizi suvdan iborat ekanini ham hisobga olsak, uning qalbida bu jarayon qanday kechishi bizga kunday ravshan bo'ladi.

Ancha yillar oldin mahallalardan birida yosh er-xotining qo'ysi-chiqdisiga guvoh bo'lib goldim. Ularning har ikkisi mahalla faollari oldida bir-birini shunchalik qattiq haqoratlardiki. "Endi bular umrbod bir-birovining yuziga qaramasa kerak", deb o'ylagandim. Oradan biror oy o'tib, yana o'sha mahallaga yo'lim tushdi, haligi kelin-kuyovni surishtirdim, "yarashib ketishdi", deyishdi. "Xayriyat", deya ko'nglim yorishdi, lekin o'sha janjal paytida men eshitgan so'zlar birrov quloqlarimni "yondirib" o'tdi.

Ko'pincha oilaviy mojarolarda erkva ayolning g'azab-u nafrati kuchayib, tillariga erk beradi, bir-birining qalbini ayamay jarohatlaydi. Jahl kelganda o'zini bosa olgan kishi eng kuchlidir, deyiladi hadislarda. Keyinchalik har eslaganda uyalib yurmaslik uchun xayolimizdan o'tgan yomon fikrni ovoz chiqarib aytishdan saqlanishimiz kerakmikin, deb o'ylab qolaman. Negaki, bu narsa faqat ayni vaqtidagi kayfiyatimizga ta'sir etib qolmay, balki sog'lig'imizni ham izdan chiqaradi. Shifokor olimlarning ta'kidlashicha, yuragimiz xafagarchiliklarga eng sezgir a'zo bo'lib, salbiy ta'sirlar tufayli uning qisqarish maromi buziladi, qon hamda tanadagi bir qancha suyuqliklar tarkibi o'zgaradi, oqibatda immunitet (*kasalliklarga qarshilik kuchi*) susayadi. Shunday kezda odamga birorta xastalik "hujum" qilishi osonlashadi.

Rivoyatlarga ko'ra, burungi zamonda ayolini har qadamda ayblab, tinmay haqoratlayveradigan bir kishi bo'lgan ekan. "Bu odamning og'zidan chiqqan so'zga ilon ham po'st tashlaydi, tokaygacha uning so'kishlarini eshitib yashaysan?" debdi yaqinlari uning ayoliga. Lekin toshdan sado chiqsa chiqarkan-u, ayol indamay yashayverarkan. Yillar o'tib, erkak dardga chalini baxti, mehr bilan parvarishlayotgan ayoliga shunday debdi:

- Bir umr so'kish-u haqoratlarimdan bo'lak hech so'z eshitmadning, qanday qilib mendek odamga chidab yuribsan-a?

- Qiyomatda sabrlilar qatorida bo'lmochiman, - debdi ayol.

- Sog'ayib oyoqqa turganimdan so'ng sendek ayolim borligiga doim shukrona keltiraman va bu bilan qiyomatda shukrilar qatorida bo'urman.

Ayol bunga javoban shunday debdi:

- Tangrim shukrli bandalariga rahmat nazarini bilan qaraydi, lekin sabrlilarini behad sevadi!

Rivoyat zamiridagi hikmat shundaki, sabrning adog'i - quvonch, lekin sabr uchun o'zida kuch topa olgan insonga har qancha tahsin ham ozlik qiladi!

Aytishlaricha, chet ellik olimlar ba'zan oddiy yo'lovchilarining o'zaro suhbataliga qulqoq tutarkan. Xo'sh, kim nimani gapiryapti? Kundalik sarf-xarajatlar va bozordagi narx-navo haqida shunchaki so'zlashayotganlar ko'pmi yoki ilm-fan va kelajakdag'i o'zgarishlar xususida kuyunib gaplashayotganlar ko'proqmi - shu haqda bilishni istarkanlar. Ularning nazarida, o'zaro muloqotlar kishilarning kayfiyati, orzu umidi va ertangi kunga ishonchidan darak beradi.

Rivoyatda keltirilishicha, cho'l-u biyobonda yoz jaziramasida halloslagancha bir yigit ketib borar edi. Orqasiga osilgan ko'zachadagi suviga onda-sonda qo'l tekkizib qo'yari, so'ng yana ilgari odimlardi. Ko'kda parvoz qilib yurgan burgut bu odamni kuzatibdi. So'ng: "Ey inson bolasi, ko'zachangdag'i suvni ichsang-chi, aks holda, nobud bo'lasan", debdi. Shunda yigit: "Suvim borligini bilaman, lekin hozir uni ichib qo'ysam, manzilga yetib borolmayman,

chunki shu suv men uchun umid va kuchquvvat", deb javob qaytargan ekan.

Orzu qilib, umid bilan yashash va o'z kuchiga ishoni insonni oldinga yetaklovchi kuch ekanini bilamiz. Shu uchalasi hayotimizning mazmunini belgilaydi. Ko'zlari ojiz bo'lsa-da, ingliz shoiri J. Milton bu haqiqatni uch yuz il avval "ko'ra olgan" va "Inson tafakkuri qalbidadir, uning o'zi jannatni do'zaxga, do'zaxni jannatga aylantira oladi", degan ekan. Go'dakligida eshitish va ko'rish qobiliyatlaridan ayrligan amerikalik mashhur adib Helen Keller esa: "Hayotim naqadar ajoyib o'tyapti", deb tinmay ta'kidlagan.

Har qanday og'ir davrda ham orzu qilishdan to'xtamagan, umidsizlikka berilmashdan manzil tomon dadil boraverган xalqning farzandlarimiz. Tomirlarimizda jo'sh urayotgan barcha insoniy fazilatlar bizga ajodolarimizdan merosdir. Hayotsevarligimiz aslida shundan. O'ylab ko'rsak, hayotimiz, aslida, u haqda nimani o'ylayotganimizning o'zginasi ekan. Agar biz baxt haqida xayol sursak, o'zimizni baxtli his etamiz. O'ylarimiz g'amgin bo'lsa, tushkunlik girdobida qolamiz. Nuqul kasalliklar haqida o'ylayversak, chindan ham dardga chalinamiz. Demakki, salbiy fikrlarimiz moddiylashib, bizni yomonlikka boshlamasligi uchun hushyor bo'lganimiz ma'qul. Aytilajak har bir so'z oldidagi mas'uliyatni unutmashligimiz joiz.

So'zning quadratini qarang! Jon olguvchi ham so'z, jon berguvchi ham so'z. Jonbaxsh so'zimiz bilan dunyoni bezatib yashasak, qani edi? Qishlog'imiz donishmandi Zulfizar momom esa: "Jonini saqlayin deb molini qurban qiladilar, aslida, birovga aytilgan yaxshi so'z ham sadaqa o'rnida o'tadi", der edi. Bizning yaxshi so'zimiz dunyoni suyab turadi, demoqchi bo'ladi momom.

Bir mahalladan chiqaverishdagi ko'cha darvozasi tepasiga katta harflar bilan "Oq yo'lli Sizni oilangiz kutadi", deb yozilganini ko'rdim. Ertalab yo'lga otlangan kishining shu yozuvga albatta ko'zi tushadi. U qay yosha bo'lmasin, yozuvni o'qigach, oisasi mehri yanada jo'shadi, shu lahzadayoq yaqinlari hayotiga mas'ul ekanini yana bir karra his qiladi. Oilsidagilar quvonchi uchun o'zini yanada ko'proc asrashi lozimligini tushunadi.

O'ylab qolaman. Yashashdan asl maqsad o'zgalar yukini yelkalashib, yon-atrofdagilarning baxtli bo'lishiga ko'maklashish ekan, buning uchun nechun so'z kuchidan foydalanmaymiz? Axir biz yuzlab-minglab yuraklarga so'z bilan kirib boramiz, ularni uyg'oq so'zimiz bilan zabitishimiz mumkin-ku!

Albatta, hoy-u havaslar ro'yobini baxt deb biladigan ayol ilm-u ijod bahslari qaynagan davralarga sig'maydi. Bordi-yu, u ikki-uch bora shu davralar suhbatini oxirigacha jimgina tinglab o'tirma, shubhasiz, dunyoqarashi o'zgaradi. Ro'zg'oridagi kamchiliklarni gapirib ado qilolmaydigan yoxud duch kelganga dardini aytib, ko'zyosh to'kaveradigan ayolga: "Ba'zi birovlar qayg'usi oldida seniki hech gapmas, hadeb obidiya qilavermay, yaxshi kunlar haqida o'yla", desak, kifoya, ayol o'sha vaqtning o'zida bo'lmasa ham, uyg'a borgach, bu gapning mag'zini chaqadi. Goho ishi yurishmay, alamini ichkilikdan oladigan odamga kimdir: "Qo'lingdag'i shayton suvini to'kib tashla, o'zingni falokatdan qutqar", desa, har holda u keyingi safar ichayotganida biroz mulohaza qiladi, yomon odatini tashlashiyam mumkin.

Xulosa o'rnida aytganda, har birimiz yon-atrofimizdagilarning hayotini o'zgartirishga qodirmiz. Chunki biz aytajak so'z ulkan quvvat manbayi, kuchli qudratga ega. Olamga go'zalliklar tilasak, u yanada chiroyli bo'la boradi.

# G'oliblar taqdirlandi

Harbiy prokuratura organlari tomonidan yoshlarni vatanparvarlik va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni yangidan yangi marralarga ilhomlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Xalqaro Nordik universiteti va "Intelligence Development Center" ta'lif markazi bilan hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori sovrini" uchun o'tkazilgan tanlov ham bu boradagi tadbirlarning mantiqiy davomi bo'ldi.



Musobaqada respublikamizdagi Jaloliddin Manguberdi, "Temurbeklar maktabi" va "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseylarining 600 nafardan ortiq 10-sinf o'quvchisi matematika fanidan bilimlarini sinab ko'rdi.

Bilimlar bahsi natijalariga ko'ra, quyidagilar shohsupani egalladi:  
1-o'rinn - Turg'un Abdullayev, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga qarashli "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchisi;  
2-o'rinn - Akbarali O'rolboyev, Xorazm viloyati Urganch shahridagi



Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litseyi o'quvchisi;

3-o'rinn - Muso Asqarbayev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus

shahridagi Ichki ishlar vazirligiga qarashli "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi o'quvchisi.

Taqdirlash marosimi videokonferens-aloqa tarzida barcha hamkorlar va tanlov qatnashchilari ishtirokida bo'lib o'tdi.

Unda Urganch shahri studiyasidan Bosh prokuror o'rinnbosari - O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev va Toshkent shahri studiyasidan Xalqaro

Nordik universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sherzod Mustafaqulov ishtirok etib, sovrindorlarni qutladi va ularga ezgu tilaklarini bildirdi.

Jarayonda g'oliblarga diplom, medal, esdalik sovg'alar, kubok hamda "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori sovrini" tantanali ravishda topshirildi.

**Adliya mayori Abdulatif ISAROV, Respublika Harbiy prokuratorusasi bo'lim harbiy prokurori**

Sherzod SHARIPOV

## Ilm-fan yutuqlari

# ELEKTRONIKA taraqqiyotida nanotexnologiya

Bugungi kunda jahon andozasiga mos, raqobatbardosh, dunyoqarashi keng mutaxassislarni tayyorlash ta'lif jarayoni mazmuni va uslubida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hayotimizga jadallik bilan kirib kelayotgan texnika sohasidagi yangiliklar ta'limdi o'z aksini topmoqda.



Uzluksiz ta'lilda elektronikaning asosiy maqsadi hozirgi zamon elektronikasi bilimlarini tahlis oluvchilar ongiga singdirishdir. Ayni davrda nanotexnologiya sohasi har qanday jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilm olaming yarimo'tkazgichli tok tashuvchilar sohasida nanofizika, nanotexnologiya, nanooptika va hatto nanotibbiyat kabi tarmoqlari vujudga keldi va tezlik bilan

taraqqiy etmoqda. Masalan, Shvetsiya Qirolligi fanlar akademiyasi ilmiy ishlarida tezkor tranzistorlar, lazerlar, integral mikrosxemalar (*chiplar*) va boshqalarni ishlab chiqarish bilan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asos solgan olimlar J. Alferov, G. Kremer, J. Kilbini Nobel mukofoti bilan taqdirlandi. Nanoelektronika o'lchamlari 0,1 dan 100 nm.gacha bo'lgan yarimo'tkazgich

tuzilmalar elektronikasi bo'lib, mikroelektronikaning mikrominiyaturlash yo'lidagi mantiqiy davomi hisoblanadi. U qattiq jism fizikasi, kvant elektronikasi, fizikavimy-kimyo va yarimo'tkazgichlar elektronikasining so'nggi yutuqlari negizidagi qattiq jismli texnologiyaning bir qismini tashkil etadi.

So'nggi yillarda nanoelektronikada muhim amaliy natjalarga erishildi, ya'ni zamonaviy telekommunikatsiya va axborot tizimlarining asosiy elementlarini tashkil etuvchi geterotuzilmalar asosida yuqori samaradorlikka ega lazerlar va nurlanuvchi diodlar, fotoqabulqilgichlar, o'ta yuqori chastotali tranzistorlar, bir elektronli tranzistorlar, turli sensorlar yaratildi. Nanotexnologiyaning rivojlanishi fizika, kimyo, biologiya, AKT, elektrotexnika va mashinasozlik fanlari bilan bog'liq. Nanotexnologiya koinot apparatlarini takomillashtirishda o'lcham va og'irliklarni kamaytiradi, Yer yo'l doshlarini 90 foiz yengillashtiradi, nanosensorlar va nanorobotlar yaratiladi, olmos tolali diod va boshqa vositalar yordamida xavfsizlik amalga oshiriladi.

Mudofaada nanotexnologiya kichik o'lchamli va tezyurar

elektron qurilmalar, yengil va quvvatlari uskunalar, sensorlarning yangi avlodni va takomillashtirilgan qurollar yaratilishiga sabab bo'imqoda. Elektronika va nanotexnologiya asosida elektron qurilmalar ekranlarini zamonaqiylashtirish, xotira mikrosxemalarining bir kvadrat dyuymdag'i hajmini terabaytlarga yetkazish, integral sxemalarda ishlatalidigan yarimo'tkazgichli asboblarning hajmini kamaytirishga erishilmoqda. Nano va AKT bo'yicha katodli nur trubkasini uglerod nanotrubkalariga almashtirish, nanotexnologiyalardan ta'minotda unumli foydalanish yo'liga qo'yilmoqda.

Energetika sohasida issiqlik va quyosh batareyalaridan foydalanish, yuqori haroratli o'tkazgichlarni ishlatalish, galvanik elementlar va akkumulyatorlarning yangi nanoavlodini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni ta'lif oluvchilar e'tiboriga taqdim etish kelajakda nanoo'lchamli yarimo'tkazgichlarning elektr o'tkazuvchanligini o'rganishda qo'l keladi.

**Shohida PAZIROVA, Qurolli Kuchlar akademiyasi dotsenti**

Inson qadri uchun

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururaturasi, Mudofaa vazirligi mas'ullari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ishtirokida Toshkent viloyatidagi harbiy qismrlarning birida sayyor qabul o'tkazildi. Unda harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, harbiy pensionerlar va boshqa fuqarolarning murojaatlari tinglandi.

Harbiy xizmatni o'tash, ish o'rni, uy-joy bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya va boshqa masalalarga doir muammolarning aksariyati o'z joyida hal etildi. Xususan, Respublika Harbiy prokurorining birinchi o'rinnbosari qabul qilgan murojaatlarning aksariyati ijobji

# MUAMMOLARGA IJOBJIY YECHIM



yechim topdi, ayrimlariga huquqiy maslahatlar berilib, mutasaddilar tomonidan nazoratga olindi.

Ommaviy qabulda mas'ullar murojaatchilarning savollariga javob qaytarar ekan, qonunchilikdagi harbiy xizmatni o'tash bilan bog'liq

o'zgarishlar, imtiyozlar va ularning haq-huquqlari to'g'risida batatsil ma'lumot berib, Vatan himoyasida turgan o'g'lonlar va ularning oila a'zolari muammolari hamisha qonuniy yechim topishini, Vatan xizmatidagi yigitlar doimo qo'llab-quvvatlanishini bildirdilar.

**Abdulloh O'KTAMQULOV**



## MEHNAT yarmarkasi

Nukus garnizoni ma'nnaviyat va ma'rifat markazida Nukus harbiy prokururaturasi tomonidan Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi bilan hamkorlikda mehnat yarmarkasi hamda sayyor qabul o'tkazildi.



agentligi xodimlari, tadbirkorlar tomonidan yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, yakka tartibda suhbat o'tkazildi. Doimiy ish joyi bilan band bo'lishi uchun taklif va tavsiyalar berildi.

Jarayonda 3 nafar yoshta Milliy gvardiyaga kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish, 18 nafar yoshta monomarkazda tahsil olish

Unda muddatli harbiy xizmatni o'tab, Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatilgan, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar va kuch tuzilmalari tomonidan otaliqqa olingan yoshlar hamda harbiy xizmatchilarning oila a'zolari ishtirok etdi.

Tadborda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov hamda Nukus harbiy prokurori adliya

polkovnigi Ulug'bek Abdurahimov so'zga chiqib, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular o'rtaida huquqbazarlik va jinoyatlarning oldini olish, jamiyatda o'z o'rmini topishlariga har tomonlama ko'mak berish ustuvor vazifalardan ekanini ta'kidlab o'tdi.

Sayyor qabul doirasida Nukus harbiy prokururaturasi, harbiy okrug,

Qoraqalpog'iston Respublikasi favqulodda vaziyatlar hamda Milliy gvardiya boshqarmalari vakillari murojaatlarni tingladi.

Uchrashuv doirasida o'tkazilgan bo'sh ish o'rnlari mehnat yarmarkasida 7 ta tumandan 430 dan ziyod korxonalar va tashkilot o'zining bo'sh ish o'rnlari bilan qatnashdi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Yoshlar ishlari

va 16 nafariga "Enter injiniring" korxonasida ishslash uchun yo'llanmalar berildi.

Tadbir yakunida yoshlarni uchun Shimoli-g'arbiy harbiy okrug tarixi muzeysiiga sayohat tashkil etildi.

**Adliya katta leytenant  
Farid HASANOV,  
Nukus harbiy prokurori  
yordamchisi**

## TIZGIN

Yo'q, buning sira iloji bo'lmayapti. Esimni tanibmanki, boshqacha bo'lishni ertaga qoldiraman. Abituriyentligimda kechasi uxlab qolsam, ertasi tuni mijja qoqmaslikka o'z-o'zimga va'da berardim. Bora-bora hayotimda bunaqa qasamlar ko'payib ketdi. Kunlar isisa, yugurishni boshlayman, hali bir kun rus tilini o'rganaman, keyin ingliz tilini ham. Ilmiy ish qilaman. Kitoblar chiqaraman. Tijorat bilan shug'ullanaman, pulim ko'p bo'ladi...

Oxiri "Qachon?" degan savol yuragimni kemirmay qo'ydi. Faqat tusmol xayolga o'xshagan ko'z ilg'amas orzular qoldi. Gohida birovning hayotini yashayotgandek tuyulaman. "Hoy, noinsof, - deydi ichki bir ovoz, - kunlaringga, ishlaringga jiddiyroq yondash. Axir bu o'zingnikiku!"

"Tashvishlar"ga andarmon bo'lib, yoshim 30 bilan 40 ning orasiga kelibdi. Hatto mana shu satrlarni yozayotganimda 40 so'zida yuragim bir qalqdi. Nahotki?! Yaqindagina bola edik. Bu yog'i qancha qolgani faqat Yaratganga ma'lum. Paysalga solaversak, umr poyonida barmoq tishlab qolish hech gapmas.

Keling, hozirdan boshlaymiz. Dastlab qog'oz-qalamni tashlab, tashqariga chiqishga undayotgan, internetga kirishga chorlayotgan ko'nikmalarni yengamiz. Bugun barmog'imizni qimirlatishga kuch topa olmasak, ertaga sira ham yugura olmaymiz. Jilla qursa, telefonimizdagi tayyor dasturdan rus tilida birgina matn tinglomasak, erkin gaplashish armon bo'lib qolaveradi. Hech bo'limasa, kompyuterda ochayotgan fayllarimizni ingliz tilida nomlomasak, bu tildan tarjima qilishga yo'l bo'lsin. 24 soatda birgina bo'lsa ham, yangi ma'lumot o'rganmasak, ilmiy ish haqida gap bo'lishi mumkin emas. Qorin falsafasi bilan yashayotgan holimizda isrofdan qochmasak, tijoratga yo'l bo'lsin!

Do'stim, nafs ixtiyoridagi tizginni o'zimizga bo'ysundiraylik. Jilovlash qiyin bo'lsa-da, vaqt o'tib, ko'nikamiz. Shundagina asosli savollar giribonimizdan olmaydi. Ozgina mashaqqatning zahmati muvaffaqiyatlar soyasida qolib ketadi.

\*\*\*

Yer aylanaveradi. Vaqt o'taveradi. Borgan sari jisman yo'qlikka yaqinlashaveramiz. Ammo borlig'imiz hamisha biz bilan. Xo'sh, qay birini jimjimador bezashga umrimizdan o'lpon to'layapmiz. Vosita bilan andarmon bo'lib, mohiyatni unutib qo'ymayapmizmi?

40 yoshga yaqinlashib chiqargan xulosam shu bo'ldiki, yashash uchun alohida imkon berilmas ekan. Quvonch-u qayg'umiz, kundalik tashvishlar orasida hayot lazzatini totishga, gandanimizdag'i asl vazifani yengillatishga ulgurib qolishimiz kerak. O'zimiz vaqtini "yorib", vaqt hosil qilishimiz shart.

Hozir avvalgi orzu-xayollarimizda yashayotgan ekanmiz, demak, bugungi o'ylarimizga hushyor bo'laylik. Shakkoklik bo'lsa ham, ba'zida bir o'y keladi: "Inson o'ziga o'zi o'lim hukmini o'qiydi!"

Dahshatga tushman, axir hamma-hammasini o'zimiz yaratayapmiz. Avval ongimiz, xayollarimiz, keyin tilimizga ko'chyapti, butun jismimiz energiyaga aylanib, magnit misol voqeliklarni jalb qilyapti. Tortib olyapti, tortilyapti.

Inson kiprik qoqmay turib, dunyonи ostin-ustun qilishi mumkin. Bir nafas olib chiqarguncha olamlarni kezib kela oladi. Vaqt va makon chegarasidan chiqib ketish uchun bir soniya kifoya.

Faqat har kim O'zini, o'zligini topsa bas.

## O'ZLIGIM SINIQLARI

Ikki quloch yer, ikki gaz surp kifoya qilgulik tanimiz uchun ikki dunyomizni boy beramiz.

\*\*\*

O'ta jiddiylik bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Zotan, dunyoning yaratilishi qaltis hazilga o'xshaydi.

\*\*\*

Har tong peshvoz chiqaman, uyqusirab, ko'zlarimni uqalab sening qarshingga. Xuddi bir narsadan quruq qolayotgan kabi yutoqib.

Uzoq kezinaman topa olmasdan. Qo'limni siltayman oxir. So'ng chayqab, artaman etaklaringga.

Har kun hafsalam pir bo'lgunicha qidiramani seni, O'zligim.

\*\*\*

Men o'zimni tashlab yubordim. Osilib turgan to'rlarimdan voz kechib.

Uchib boryapman...

Qayerga qo'nishni bilmayman.



\*\*\*

Teskari aksiomaga o'xshaydi. Qanchalar sevaman, deb hayqirsam, shunchalar sevmayman. Sen esa sevinasan.

Men esa qo'rqaman. Eng so'nggi ilinjdan ayrilmoqligidan.

\*\*\*

Yuzingdag'i pardalarni birin-ketin sidirib tashlayapman. Manzildan olislab ketmaslik uchun.

Hayoga o'ralgin.

\*\*\*

Hech bo'lmasa, o'zimni aldamat yashay olsaydim. Senga yolg'on so'zlamasdim sira.

Sirlarimdan do'mpayib qolmasdi qabrim.

\*\*\*

Parchalanib yotgan o'zligim siniqlarida aksim jilvalanadi. Ammo yaxlit Men emas. Allakimlardan yig'ilgan yamoq.

Joyimdadepsinib, qadam tovushlarimni kuyga o'xshataman. Zavqlanib, maroq bilan davom etaman. Olamni navo bilan go'zallikka burkamoqchi bo'laman.

O'zligim sochilar tevaragimga.

Men qachon o'zingga qo'shilaman, O'zligim?

\*\*\*

Oyoqlar, qo'llaringiz bilan chirmashib, VAQTni to'xtatib qo'ya olasizmi?

So'nggi daqiqalariningizni o'tkazayotgan bo'lishingiz mumkinligini o'ylang. BUYUK qudratingiz uyg'onadi. O'zingizni behisob sarmoya egasidek tutmang. Ko'zaning tagi ko'rinib qolganidan keyingi tavallolar behuda!

\*\*\*

Vaqt ichkarisiga ham cheksiz, deb yozadi adiblarimizdan biri. Nazarimda, olam ham o'zining ichida cheksiz dunyochalarga bo'lingan. Birgina voqeanning ichida minglab hodisalar yashirin. Odamning qiyimi ana shu olamlarni kashf qila olish darajasi bilan o'lchansa, ne ajab?!

\*\*\*

Ular shu darajaga kelgandilarki, tanballik bilan tavakkulni qorishtirib yuborgandilar.

\*\*\*

"13" dan emas, undan qo'rquishdan qo'rq.

\*\*\*

Insonlar uyqudalar, o'lgach, ko'zlar ochiladi.

\*\*\*

Hayotning shunday lahzalari borki, unga butun umringni bag'ishlasang arziydi.

\*\*\*

Insonga ba'zan bilishining bilmasligi, ba'zida bilmasligining bilmasligi pand berarkan.

\*\*\*

Dunyo shu qadar omonatki, gohida nima uchun yozib o'tiranimiga tushunolmay qolaman.

## JOZIBA

Uning maftun etuvchi suratiga soatlab tikilib o'tirishim mumkin.

Undan ma'nolar ham uqa boshlayman.

Uning JOZIBAsi meni o'ziga maftun etib qo'yan bo'ladi.

Lekin bilmaymanki, bu JOZIBA men kabi yana qanchalarni aqldan ozdirayotganini.

Balki, JOZIBA shu orqali o'zini ko'z-ko'z qilayotgandir. Hamma olomon bo'lib intilayotgan sarobga egalig qilish orzusi aqldan emas. Aksincha, soddalik alomati.

Sening bu soddaligingdan nafaqat o'zing, balki boshqalar ham jabr ko'radi.

Chunki sen o'zing kabilarni ham mahliyolik dardiga duchor etding.

Endi ular ham sen kabi sarobning yonida yashayotganlari bilan faxrlanib o'tib ketadi.

## JO'NLIK

Oppoq qog'ozga termilib o'tiraversang-u, hech narsa yoza olmasang, dodlab yuborging kelarkan. Chunki bu lahzalar qalbingda bo'shliq yuzaga kelib, fikrlashing jo'nlashayotganidan dalolat beradi.

Bordi-yu, shunday bo'lsa, yozma. Boshqa bir ish bilan mashg'ul bo'l.

Jo'n fikrlar dunyoning joniga allaqachon tegib bo'lgan.

**Mayor Aziz NORQULOV,  
"Vatanparvar"**

# Vatanparvarlik tarbiyasi yo'lida

Bugun mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Zotan, millat manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun ko'radigan, o'z kuchiga ishonib yashaydigan, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash yurt istiqbolining poydevorini qurish demakdir.



Surʼallar tahliliy arxividan olindi

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi, konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, davlat va jamiyat manfaatlarni himoya qilishga qodir shaxslar etib voyaga yetkazishga qaratilgan, davlat va jamoat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. U ilmiylik, tarixiylik, aniqlik va tezkorlik, muntazamlik, faollik, ta'lim va tarbiya uyg'unligi, izchilligi hamda ijobjiy natija va yutuqlarni qamrab olgan taqdirda o'z samarasini beradi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning samaradorligi o'tkazilayotgan tadbirlarning ular ongi va qalbiga ijobji

ta'sir etib, intellektual, ijodiy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi faolligi oshgani, Vatanini himoya qilish hamda xavfsizligi uchun fuqarolik burchi hamda mas'uliyatini anglab yetgani, davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida har qanday xizmatga doim shay turish pozitsiyasi shakllangani bilan belgilanadi.

Kutilayotgan natija esa vatanparvarlik tuyg'usi yuksak, zamonaviy bilim, mustahkam iroda va qat'iy hayotiy pozitsiyaga ega yoshlarni oliy, oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlari, milliy armiyamiz saflarida harbiy xizmatni o'tashlari, davlat organlarida va tadbirkorlik sohalarida faoliyat yuritishlaridan iborat. Bu boradagi ishlarni tizimli, bosqichma-bosqich va samarali tashkil etish maqsadida, avvalo, hududlar

bo'yicha aholini toifalarga bo'lib, ular orasidan uyushgan, uyushmagan hamda uzoq muddatga xorijga chiqqan yoshlarni ajratib olish maqsadga muvofiq. Bu ishlarni amalga oshirish uchun harbiy boshqaruvi organlari tegishli viloyat (tuman) hokimlarining yoshlar siyosatini rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bo'yicha o'rinosari, hududiy ichki ishlarni organlarining mas'ul xodimlari hamda mahallalarda faoliyat yuritayotgan yoshlar yetakchilari bilan hamkorlikni tashkil etadi va asosiy tarbiya obyektni aniqlab oladi.

Uyushgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida, birinchi navbatda, Yoshlar ishlarni agentligi hamda uning shahar va tumanlardagi bo'lmalmalar bilan hamkorlik o'rnatish lozim. Chunki mazkur

tashkilotning har qanday shakldagi tadbirlarga yoshlarni jaib etish uchun yetarlicha kuch hamda imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, O'zbekiston yoshlar ittifoqining markazi va hududiy kengashlarida faoliyat yuritayotgan bo'lim boshliqlari ham hamkorlikdagi tadbirlarga yaqindan ko'mak beradi. Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari bilan yaqin hamkorlik o'rnatish bilan birga harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yuqori saviyada, mazmunli o'tkazish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Xotinqizlar qo'mitasi, "Nuroniy" jamg'armasi, O'zbekiston mudofaafiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti hamda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi va ularning hududiy bo'limlari bilan mustahkam hamkorlik o'rnatish lozim.

Uyushmagan yoshlar bilan ishlarni asosan mahallalar kesimida olib borilishi bilan xarakterlanadi. Bu yo'nalishda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik hamda Adliya vazirliklari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi va ularning hududiy bo'limlari, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan uzviy hamkorlik o'rnatish, uning doirasida alohida ishlarni tizimini takomillashtirish har jihatdan muhim sanaladi.

**Podpolkovnik G'ofur BOZOROV**  
Mudofaa vazirligi  
Tarbiyaviy va mafkuraviy  
ishlar bosh boshqarmasi

Malaka

# BILIM VA KO'NIKMALAR MUSTAHKAMLANMOQDA

Yurt tinchligi, xalqimizning farovon turmush tarzini ta'minlash borasidagi vazifalarning hal etilishida mamlakat Qurolli Kuchlari salmoqli o'rinn tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilish yurt o'g'lonlaridan intellektual bilim, jismoniy qobiliyat va tajribalarni egallashni taqozo etadi. Bu esa har bir harbiy xizmatchidan qat'iy intizom, ruhan va jismonan chiniqish, komandirlardan esa har doim kuch va vositalarni o'z vaqtida boshqarishni talab qiladi.

Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilarining malakasini oshirish bo'yicha Qurolli Kuchlar akademiyasi professor-o'qituvchilari tomonidan harbiy xizmatchilar bilan mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazib kelmoqda. Harbiy xizmatchilar ma'ruza

va seminar mashg'ulotlarida olingen nazariy bilimlarini tegishli qo'mondonlik bilan hamkorlikda "oddiydan murakkabga" tamoyili asosida mustahkamlab kelmoqda.

Harbiy mutaxassislarini tayyorlash kurslarining maqsadi xizmat vazifalarini bajarishda, vaziyat taqozo etganda va favqulodda vaziyatlarda mavjud maxsus vositalarni yakka tartibda qo'llay olishga o'rgatish, sohaga oid rahbariy hujjatlar talablari bo'yicha nazariy bilimlar berishdan iborat. Shuningdek, muhofaza qilinayotgan obyektda belgilangan tartibni buzgan shaxslarni qo'lga olish, tintuvdan o'tkazish bo'yicha amaliy

ko'nikmalarni shakllantirish, obyektning nazorat-o'tish joylarida vaziyatning o'zgarishlarida naryad (qorovul) tarkibida hamjihatlikda, jangovar taqsimotga muvofiq harakatlanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan.

Bugungi kunda harbiy mutaxassislarini tayyorlash kurslarini tamomlagan kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga sertifikat va navbatdagi harbiy unvonlar berilmoqda.

**Podpolkovnik Nuriddin VAHOBOV,**  
**Qurolli Kuchlar akademiyasi**  
**katta o'qituvchisi**



# JAHON CHEMPIOONATIGA TAYYORGARLIK

Xalqaro sport kengashining (CISM) dzyudo bo'yicha sport komissiyasi prezidenti general Farshad

Najafipur hamda uning yordamchisi Hamid Rizo Muhammad harbiylar o'rtasida bo'lib o'tadigan XXXII jahon championatiga tayyorgarlik jarayonini kuzatish uchun mamlakatimizga tashrif buyurdi.

Mehmonlar O'zbekiston Respublikasi dzyudo federatsiyasida tashkillashtirilgan brifingda qatnashib, nufuzli musobaqa bo'yicha kerakli ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Dzyudo federatsiyasida bo'lib o'tgan uchrashuv chog'ida mudofaa vaziri o'rinsosari polkovnik Alisher Norboyev, O'zbekiston Respublikasi dzyudo federatsiyasi bosh kotibi Aziz Sobirov mamlakatimizda jahon championati doirasida olib borilayotgan ishlar haqida batafsil to'xtalib o'tdi. General Farshad Najafipur hamda uning yordamchisiga bu boradagi barcha ma'lumotlar yetkazildi. O'z navbatida, eronlik mehmonlar O'zbekistonda dzyudoga davlat miqyosida qaratilayotgan e'tibor tufayli o'zbek sporthilarini dunyo arenalarida olamshumul yutuqlarni qo'lga kiritayotganini ta'kidlagan holda, bu zaminda o'tkaziladigan har qanday xalqaro musobaqa yuksak darajada tashkillashtirilishiga ishonch bildirdi.

Shundan so'ng mehmonlar jahon championati ishtiokchilari yashaydigan mehmonxona, mashg'ulot arenasi hamda Dzyudo federatsiyasining faoliyati bilan yaqindan tanishdi. General Farshad Najafipur tatamidan dzyudo sirlarini o'rganayotgan

yoshlar harakatlarini kuzatdi. Kelajakda ular orasidan Davlat Bobonov, Alisher Yusupov, Diyora Keldiyorova, Gulnoza Matniyozova kabi nomdor sportchilar yetishib chiqishiga tilak bildirib, esdalik uchun suratga tushdi.

Ma'lumki, harbiylar o'rtasidagi XXXII jahon championatini shu yilning 14-20-oktabr kunlari poytaxtimizdagi "Saxovat sport servis" majmuasida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

Yurtimiz sport muxlislariga yaxshi ma'lumki, dzyudo bo'yicha O'zbekiston termo jamoasining asosiy negizi Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillaridan iborat. Xususan, yaqinda BAAning Abu-Dabi shahrida bo'lib o'tgan dzyudo bo'yicha jahon championatida yurtimizning 17 nafar erkak va ayol dzyudochisi qatnashgan, ularning deyarli teng yarmini MVSM vakillari tashkil etgandi. Ular orasida Diyora Keldiyorova muxlislarimiz ishonchini oqlagandi. "Katta dubulg'a" turnirlarida g'oliblikka erishgan

birinchi ayol dzyudochi sifatida yurtimiz sporti tarixidan joy olgan Diyora bu yilgi jahon championatida kumush medalga sazovor bo'ldi. Diyora o'tgan yili Qatarda o'tgan jahon championatida ham finalga chiqib, kumush medalni qo'lga kiritgan edi. Diyora va MVSM dzyudochilarini endi oldinda yurtimizda o'tkaziladigan harbiylar o'rtasidagi dunyo birinchiligi kutmoqda. Keling, mazkur jahon championatida tatamiga chiqishi mumkin bo'lgan yetakchi dzyudochilarimizning ayrimlari bilan yanada yaqinroq tanishamiz.

## Diyora KELDIYOROVA

Dzyudo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. Ko'p karra O'zbekiston championi. 2017-yili jahon championi bo'lgan. 2018-yili qit'a championligiga erishgan. 2021-yili Bishkekda o'tkazilgan Osiyo-Okeaniya birinchiligidagi kumush medalni qo'lga kiritgan. Turkiyaning Antalya shahrida -52 kg vazn toifasidagi bellashuvlarda

qatnashgan MVSM vakili barcha raqiblarini

mag'lubiyatga uchratib, "Katta dubulg'a" turnirlarida g'oliblikka erishgan birinchi ayol dzyudochi sifatida yurtimiz sporti tarixidan joy olgan.

## Davlat BOBONOV

Dzyudo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. 2016-yilgi Toshkent "Katta dubulg'a"si va yoshlar o'rtasidagi Osiyo championati g'olib. 2020-yili Dyusseldorf va Toshkent "Katta dubulg'a" turniri hamda jahon championatida kumush medalga sazovor bo'lgan. 2020-yilgi mavsum yakunida yurtimizda "Yilning eng yaxshi sportchisi" deb topilgan. 2021-yilgi Osiyo championatida zafar quchgan. Juhon championatlarining bittadan oltin, kumush va bronza medallari egasi, Osiyo o'yinlarining ikki karra kumush medali sovrindori. "Tokio - 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarida bronza medalni qo'lga kiritgan. I darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni va "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'ssatgan sportchi" faxriy unvoni sohibi.

## Gulnoza MATNIYOZOVA

Dzyudo bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi. 2018-yilgi XVIII Osiyo o'yinlarining bronza medali sohibi. 2021-yilgi Toshkent va Tbilisi "Katta dubulg'a" turnirlarida bronza medalni qo'lga kiritib, Osiyo-Okeaniya championatida g'olib chiqqan. 2018-yili o'zbek milliy kurashi bo'yicha ham ikkita xalqaro musobaqa va Osiyo championatida qatnashib, barchasida championlikka erishgan.

**Asror RO'ZIBOYEV,  
"Vatanparvar"**



Kamondan otish



# TARIXIY NATIJA YANGILANDI

Turkiyada kamondan otish bo'yicha "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanma uchun jahon miqyosidagi litsenzion turnir bo'lib o'tdi. O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Amirkxon Sodiqov yakkalik dasturida muvaffaqiyatlari qatnashib, Olimpiada yo'llanmasiga sazovor bo'ldi. Musobaqada Mudofaa vazirligi Oly sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham ishtirok etib, yo'llanmalar uchun kurash olib bordi.

Merganlarimiz Turkiyaga borishdan avval Janubiy Koreyaning Suwon shahrida o'tkazilan kamondan otish bo'yicha Osiyo kubogining navbatdagi bosqich bahslarida qatnashdi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi bitta bronza medalga sazovor bo'ldi – Amirkxon Sodiqov va Ziyodaxon Abdusattorova musobaqanining mikst dasturida shohsupanigan uchinchi pog'onasiga ko'tarildi. Yakkalik dasturidagi bahslarda esa merganlarimizning omadi chopmadni, medallar uchun kurashni erta tark etdilar.

Janubiy Koreyadan qaytib kelgan merganlarimiz darhol Turkiyaga yo'l oldi. Antalya shahri mezonlik qilgan musobaqa dunyo merganlari uchun bo'lajak Olimpiada ishtirokchilarini aniqlab beradigan jahon miqyosidagi so'nggi litsenzion turnir edi. Shu bois yakkalik hamda jamoaviy dasturdagi barcha bahslar sport muxlislari uchun qiziqarli kechdi.

Eslatib o'tamiz, o'tgan yilning dekabr oyida yurtimizning mahoratlari kamonchi qizi Ziyodaxon Abdusattorova Osiyo miqyosidagi litsenzion turnirda muvaffaqiyatlari qatnashib, o'zbek sporti

tarixida birinchi bor yakkalik dasturida Olimpiada yo'llanmasini qo'lga kiritib ulgurgandi. Yakkalik va jamoaviy dasturlarda yo'llanmalar uchun kurash kechgan Turkiyadagi musobaqaqaga Ziyodaxonning tarixiy natijasini yangilash uchun yana 6 nafar mernaganimiz bordi. O'zbekiston kamondan otish federatsiyasi Amirkxon Sodiqov, Shohjahon Abdulhamidov, Ziyodaxon Abdusattorova, Jasmina Nurmanova hamda MVSM vakillari Nilufar Xamrayeva va Yao Yuy Chenga ishonch bildirdi. Garchand ushbu mernaganimizning barchasi Turkiyada o'zları xohlagan natjalarga erisholmagan bo'sa-da, muxlislar ishonchini oqladi. Chunki Turkiyadagi musobaqadan so'ng Olimpiadaga yo'llanmalarimiz soni yanada ko'paydi. O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Amirkxon Sodiqov muvaffaqiyatga erishdi. U yakkalik dasturida "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Ushbu muvaffaqiyatning yana bir ahamiyatliti tomoni shundaki, mazkur yo'llanma evaziga Sodiqov Olimpiya o'yinlarida Abdusattorova bilan mikst dasturida ham qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu o'zbekistonlik 2 nafar kamonchi XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining kamondan otish musobaqalarining 3 ta dasturida medallar uchun kurashadi, deganidir.

## Sport o'yinlari

Rossiyaning Qozon shahrida VI "BRIKS" xalqaro sport o'yinlari bo'lib o'tmoqda. Ayni avj pallaga ko'tarilgan mazkur yirik musobaqada yurtimiz sportchilari muvaffaqiyatlari qatnashmoqda.

Oltinchi bor o'tkazilayotgan "BRIKS" o'yinlarida dunyoning 60 mamlakatidan 4 751 nafar sportchi ishtirok etib, 27 sport turi bo'yicha o'zaro raqobatlashyapti. Yilning eng yirik musobaqalaridan biri hisoblangan mazkur sport o'yinlarida ishtirokchilar jami 387 ta medal jamg'armasi uchun kurash olib boryapti. Unda yurtimizning 250 nafardan ziyoratli vakili ham qatnashib, Vatanimiz sport sharafini himoya qilmoqda. Ishtirokchilar safidan MVSM vakillari ham o'rinni olinan. Yurtimiz sportchilari musobaqaning yengil atletika, belbog'i kurash, kurash, sambo, basketbol, voleybol, tennis, sport kurashlari, boks, karate, ushu, qilichbozlik, sport gimnastikasi, eshkak eshish, sinxron suzish, suvgi sakrash kabi jami 19 sport turi bo'yicha bahslarida ishtirok etmoqda.

Musobaqa 13-iyun kuni boshlandi. Ilk kungi bahslar yurtimiz sportchilari uchun omadli kechdi. Delegatsiyamiz

## VI "BRIKS" DAN MEDALLAR "YOMG'IR" I

hisobidagi dastlabki medalga sinxron suzuvchimiz Diana Onkes mualliflik qildi. Hamyurtimiz suzishning texnik solo dasturida bronza medal sohibiga aylandi. Mazkur yo'nalihsida oltin medal rossiyalik uch karra Olimpiada championi Svetlana Kolesnichenkoga nasib etgan bo'lsa, belaruslik jahon championati sovrindori Vasilina Xondoshko shohsupanining 2-pog'onasidan joy oldi.

VI "BRIKS" xalqaro sport o'yinlarining ilk kunida mamlakatimiz sportchilari jami 6 ta medalni qo'lga kiritdi. Ayniqla, sambochilarimiz faoliik ko'rsatdi – Ubaydullo Mo'minov (-71 kg) oltin, Sardor Olimjonov (-64 kg) kumush, Mushtariy Jarkova (-59 kg), Ilhom Farmonov (-58 kg) va Shuhrat Normurodov (-79 kg) bronza medalga sazovor bo'ldi.

Birinchi kungi bahslar yakunida umumjamoa hisobida Rossiya Federatsiyasi 5 ta oltin, 3 ta kumush, bitta bronza medal bilan peshqadamlilik qilgan bo'lsa, Belarus sport delegatsiyasi 3 ta oltin, bittadan kumush va bronza medal hisobiga 2-o'rinni band etdi. O'zbekiston sport delegatsiyasi esa bittadan oltin va kumush hamda

4 ta bronza medal bilan kuchli uchlikka yakun yasadi.

Musobaqanining keyingi kungi bahslarini ham yurtimiz sportchilari ko'tarinkи ruhda davom etti. Xususan, VI "BRIKS" xalqaro sport o'yinlarining ikkinchi kuni hamyurtlarimiz bitta oltin, 5 ta kumush, 6 ta bronza, uchinchi kuni bitta kumush va 5 ta bronza medalga sazovor bo'ldi. To'rtinchi kungi bahslardan so'ng delegatsiyamiz 3 ta oltin, 7 ta kumush, 17 ta bronza, jami 27 ta medalni jamg'arib, umumjamoa hisobida Rossiya, Belarus, Xitoy va Erondon so'ng 5-o'rinda ketmoqda edi. Beshinchchi kungi bahslarda erkin kurashchilarimizning 5 nafari final yo'llanmasini qo'lga kiritgani esa yana "medallar yomg'iri" dan darak berdi.

VI "BRIKS" xalqaro sport o'yinlari 23-iyunga qadar davom etadi.

## SHOHSUPA

### (xabarlar)



#### ESHKAK ESHISH



Tailandning Pattaya shahrida baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha U-18 va U-23 yosh toifasida

Osiyo championati bo'lib o'tdi. Unda tarkibidan Mudofaa vazirligi Oly sport natijalarini rivojlantirish markazi vakillari ham o'rinni olinan yurtimizning 28 nafar eshkak eshuvchisi ishtirok etdi. Qit'a birinchiligi mamlakatimizda eshkak eshish ustalarining yangi avlodni kamol topayotganini ko'rsatdi. Chunki yurtimizning 28 nafar yosh eshkak eshuvchisi Osiyo championatinining 12 ta oltin, 16 ta kumush, 6 ta bronza, jami 34 ta medalini qo'lga kiritdi.

#### YENGIL ATLETIKA



Shvetsiyaning Sollentuna shahrida yengil atletika bo'yicha "Folksam GP Sollentuna" xalqaro musobaqasi

o'tkazildi. Unda ishtirok etgan O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Anvar Anvarov uzunlikka sakrash dasturida yuqori natija qayd etib, muxlis-u mutaxassislar e'tirofini qozondi. Yurtdoshimiz bu gal 7,80 metr natija bilan xalqaro turnirning oltin medaliga sazovor bo'ldi. Musobaqada serbiyalik Lazar Anich (7,60 metr) ikkinchi, shvetsiyalik Ugo Olsson (7,42 metr) uchinchi o'rinni egalladi.

\*\*\*

Janubiy Koreyaning Mokpxo shahrida yengil atletikaning uloqtirish turlari bo'yicha o'tkazilan Osiyo championatini O'zbekiston terma jamoasi a'zolari bittadan kumush va bronza medal bilan yakunladi. Terma jamoamiz a'zosi Zarina Nosirjonova bosqon uloqtirish bo'yicha 64,54 metr natija bilan kumush medalga egalik qilgan bo'lsa, championatning yadro uloqtirish bahslarida mahoratlari sportchimiz Malika Nasriddinova 17,06 metr ko'rsatkichni qayd etgan holda bronza medal sohibiga aylandi.

#### SHAXMAT



Xalqaro shaxmat federatsiyasining "FIDE Circuit - 2024" reytingi e'l on qilindi. Poytaxtimiz Toshkentda poyoniga yetgan "UzChess Cup - 2024" turniridan so'ng yangilangan ushbu reytingda uch nafar shaxmatchimizning nomi qayd etildi. 19.28 ochko jamg'arishga muvaffaq bo'lgan Nodirbek Abdusattorov reytingda yetakchilar safidan joy oldi. Shuningdek, Shamsiddin Vohidov va Nodirbek Yoqubboyevning ham nomi ushbu reytingda qayd etildi. Ta'kidlash joiz, 2024-yil yakuniga ko'ra, "FIDE Circuit - 2024" reytingi yetakchisi navbatdagi "Da'vogalar turniri" da qatnashish huquqini qo'lga kiritadi.

#### VELOSPORT



Qozog'istonning Almati shahri mezonlik qilgan veloshosse bo'yicha Osiyo championatini O'zbekiston terma jamoasi a'zolari bittada oltin va 4 ta kumush medalga egalik qilish bilan yakunladi. Xususan, Olga Zabelinskaya kattalar o'tasidagi individual vaqt poygasida g'olib chiqqan bo'lsa, hamyurtimiz Yanina Kuskova bu borada 2-o'rinni egalladi. Shuningdek, Samira Ismoilova ham yoshlar o'tasidagi individual vaqt poygasida kumush medallik bo'ldi. Kattalar va yoshlar o'tasidagi aralash mikst estafetalarida vakillarimiz ikkinchi natija qayd etdi.

Non – O'zbekistonda ovqatlanish ratsionining ajralmas qismi. Biz har kuni albatta non xarid qilamiz.

Agar ertasiga u qotib yoki aynib qolsa, xunob bo'lasmiz.



**Manzil:**  
**Toshkent shahri**  
**Gavhar ko'chasi,**  
**125-uy.**

**Murojaat uchun**  
**telefonlar:**  
**95 169-78-51**  
**95 169-78-52**  
**95 169-78-53**



# "PGS" MCHJ USKUNALARINI XARID QILING



Respublikamizning ko'plab shahar va qishloqlarida non pishiriladi. Ular hatto bir necha kun saqlanganidan keyin ham iste'mol qilinadi. Bunda gap ana shu ajoyib nonlar uchun tayyorlanadigan xamirda emas. Xamir qorishmasi istalgan non zavodidagiga o'xshash. Buning siri kichik novvoxyonalarning qizdiruvchi keramik elementlarida yashiringan.

Nega haqiqiy o'zbek obinonini gaz plitasining pechida ham, non zavodida ham yopib bo'lmaydi? Ma'lum bo'lishicha, buning ilmiy isboti bor. Hamma gap standart pechkalarni tayyorlash uchun ishlatalgan metalldan tarqaluvchi to'lqnirlarda ekan. Uzunligi 300-320 mikrometri bu to'lqnirlar past darajadagi zichlikka ega. Obinon yopiladigan tandirlar yasadigian loy, boshqacha aytganda, keramika esa uzunligi 50-60 barobar kam bo'lgan to'lqnirlar tarqatadi, ammo yuqori darajadagi zichlikka ega. Aynan ana shu zichlik yopilayotgan nonning har bir mikrometri yaxshi pishishiga yordam beradi. Qisqa to'lqn uzunligi esa ozuqa moddalarining yo'q bo'lib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Shu sababli obinon shunday mazali va xushbo'y bo'lib, uni tushlik vaqtida asosiy taom sifatida tanovul qilish mumkin.

Toshkentdag "PGS" firmasi mutaxassislari keramika tarqatadigan to'lqnarning ana shu xususiyatidan foydalanishga qaror qildi. Va o'ziga xos keramik qizdiruvchi elementlardan foydalangan holda mininovvoyxona yaratildi. Natijada tandir xususiyatlarga ega bo'lgan elektr pechi paydo bo'ldi. Bunday mininovvoyxonada yopilgan non o'z sifati va xususiyatlarga ko'ra, bozorlarda sotiladigan nonlardan farq qilmaydi.

Obinondon tashqari, "PGS" mininovvoyxonalarida o'nlab turdag'i bulka non mahsulotlarini, birinchi navbatda, buxankalani pishirish mumkin. Bunday mininovvoyxonalarda ularning sifati qanchalik yaxshilanishi tasavvur qila olasizmi?

"PGS" mininovvoyxonalarida keramikaning q'llanishi ularga metall qizdiruvchi elementli namunalarga nisbatan ekologik jihatdan ustunlik beradi. Bunday xususiyat boshqa mamlakatlarda ishlab chiqariladigan mininovvoyxonalar oldida energiya samaradorligi, ishonchlilik, qulaylik va tejamkorlik singari afzalliklar beradi. Misol uchun, elektr quvvati iste'moli ikki-uch barobar qisqaradi.

Bundan tashqari, "PGS" mininovvoyxonalar mahalliy elektr tarmoqlariga moslashtirilgan. Masalan, bir qator xorij mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mininovvoyxonalar 0,2 foizgacha bo'lgan elektr kuchlanishi o'zgarishlariga chidaydi, "PGS" mininovvoyxonalar esa -10 foizgacha.

"PGS" mininovvoyxonalarining bunday xususiyati ulardan uzoq muddat davomida foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunga xususan issiqlik manbayi sifatida yevrofexral simidan foydalanish hisobiga erishilgan bo'lib, uning ish qobiliyatni nixrom simiga qaraganda ancha yuqori hisoblanadi. Keramikadan tayyorlangan qizdiruvchi element korroziya ta'siriga tushmasligi va oksidlanmasligi sababli pechkaning chidamliligi va puxtaligini yanada oshiradi.

Keramik qizdiruvchi elementlarning qo'llanishi pechkadan foydalanish xavfsizligi darajasini ancha oshiradi, chunki keramika dielektrik material hisoblanadi. Bunday tashqari, qurilmani montaj

qilishda xavfsizlik maqsadida faqat issiqlikka chidamli simlardan foydalanilgan bo'lib, ular Selsiy bo'yicha +750 darajagacha bo'lgan haroratga chidamli hisoblanadi (PTL, BIF). Shunga o'xshash xorijiy namunalar bilan taqqoslaganda, "PGS" mininovvoyxonalarini ishga ancha tez tayyorlash mumkin. Masalan, Rossiyada ishlab chiqarilgan ba'zi mininovvoyxonalarining qizib olish vaqtida 60 daqiqa qachani tashkil etishi mumkin, "PGS" mininovvoyxonalariga esa buning uchun 5-7 daqiqa kifoya qiladi. Zudlik bilan bulka non mahsulotlarini tayyorlash zarurati yuzaga kelganida, bu juda qulay.

Xorijda ishlab chiqarilgan mininovvoyxonalar bir necha barobar qimmat turadi. Bu hali ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ham ancha qimmatligi, buning ustiga firma servis markazlari mavjud emasligini hisobga olmaganda. "PGS" mininovvoyxonalarini xarid qilishda ishlab chiqaruvchi 12 oy mobaynida to'xtovsiz ishslash va besh yil mobaynida bepul servis xizmati ko'rsatilishini kafolatlaydi. Kafolat muddati tugaganidan keyin ham servis markazi mutaxassislari har qanday nosozlikni hech bir muammosiz bartaraf etishda yordam ko'rsatadi. "PGS" mininovvoyxonalarini 10-15 yil oldin xarid qilgan mijozlarning ularni ta'mirlash maqsadida korxonaga tashrif buyurishi hamda bu mahsulotdan mamnun ekanini izhor qilishi ham bunday mininovvoyxonalarining ishonchliligi va uzoq muddat xizmat qilishini yaqqol isbotlaydi.

Bugungi kunga kelib "PGS" XIK mininovvoyxonalarining beshinchi avlodи ishlab chiqarilishini yo'lg'a qo'ygan. Bu "PGS-020" bo'lib, u nondan pirojnyigacha bo'lgan 50 turdag'i mahsulotlarni tayyorlash imkonini beradi. "PGS-020" ikki kamerali bo'lib, unda bir vaqtning o'zida ikkita mahsulot – masalan, non va somsa pishirish mumkin. Mininovvoyxonaning o'zi esa kichkinagini - og'irligi atigi 140 kilogramm, bino ichida bir kvadrat metrdan kamroq joyini egallaydi.

"PGS-020" yarim soat mobaynida 32 ta buxanka, yetti daqiqa ichida 36 ta yopgan non, 10 daqiqada 100 dona somsa pishirib berishi mumkin. Bunday texnika ko'plab ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun juda kerakli hisoblanadi.

Endigina ish boshlayotgan tadbirkorlarning aksariyati bugungi kunda non yopish bilan shug'ullanishi mumkin. Bunda mahalliy "PGS" mininovvoyxonalar yordam beradi. Ular xorijiy namunalarga nisbatan ancha arzon va tejamkor, ularda tayyorlanadigan mahsulotlar esa ancha sifatliligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham xususiy tadbirkor bo'lishga qaror qilgan insonlar mazali non yopuvchi mininovvoyxonalarini xarid qilsalar, eng to'g'ri yo'lni tanlagan bo'ladilar.

Zero shahar kvartali yoki mahalla ichiga o'rnatilgan bunday mininovvoyxona doimo ko'p sonli xaridorlarni o'ziga jalb etadi. Chunki bunday holatda uzoqqa borishning hojati qolmaydi, yangi yopilgan bulka non mahsulotlarini xarid qilish ham doimo yoqimli bo'ladi.

Mahsulotlar sertifikatlari.

# Qahva foydalimi yoki zararli?



Qahva – qahva daraxtining qovurilgan va maydalangan donlaridan tayyorlangan, dunyodagi eng mashhur ichimliklardan hisoblanadi. Qahva

donalarida 70 ga yaqin biologik faol komponent, jumladan kofein, 30 ga yaqin organik kislota, B guruhi vitaminlari, shuningdek foliy kislotalari, kaliy, marganes, magniy va fosfor mavjud. Bu ichimlik antioksidantlarga boy. Qahva dunyodagi barcha ichimliklar ichida foydaliligi bo'yicha suvdan keyin ikkinchi o'rinni egallagan. Lekin buning ham zararli tomonlari bor. Quyida qahvaning foya va zararlari haqida so'z yuritamiz.

Qahva tarkibida organizmdagi keksayishga yordam beradigan erkin radikallarni chiqarib tashlovchi antioksidantlar mavjud. Qahva antioksidantlari saraton, ayrim yurak kasalliklari, har ikkala diabet turi va Parkinson kasalligi bilan kurashishda yordam beradi.

Haqiqiy tabiiy qahva yo'g'on ichak saratoni rivojlanishi ehtimolini kamaytirishi, ovqat hazm qilish traktining faoliyatini rag'batlantirishini isbotlovchi tadqiqotlar mavjud. Uning tarkibidagi kofein butun vujudga, xususan yurakka rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu qahva ichgandan keyin pulsning yaxshiroq eshitilishi bilan tasdiqlanadi.

Qahva bosh og'rig'in kamaytiradi yoki butunlay qoldiradi, chunki u miyaning qon tomirlarini kengaytiradi. Miyada qon aylanishini yaxshilaydi. Qanchalik foydali bo'lishiga qaramay, uni ko'p iste'mol qilmaslik lozim.



## Asosiy foydalari

- Jigarning yog'li gepatozi, jigar sirrozi, jigar rakining oldini oladi va davolaydi. C gepatiti kasalligida jigar hujayralarini oksidlovchilar ta'siridan himoya qilishi va chandiqlanish jarayonini sekinlashtirishi aniqlangan.
- Umumiy saratonga chalinish xavfini kamaytirib, umrni 15 foizga uzaytiradi.
- Yurak-qon tomir kasalliklari, yurak ishemiyasi va insultning oldini oladi.
- Qandli diabetning ll tipidan, metabolik sindromidan saqlaydi.
- Buyraklarda tosh hosil bo'lishini kamaytirib, podagraning oldini oladi.

## Fe (temir) va qahva

Qahva temirning ichaklarda so'rilihiga qarshilik qiladimi? Bu bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda bir finjon qahva ovqat tarkibidagi temirning ichaklarda so'rilihini 39 foizga, bir finjon choy esa 64 foizga kamaytirgan. Qahvaning dozasi ortib borgan sari bu ta'sir ham shuncha ortgan. Bu esa kamyonlikka (temir tanqisligi anemiyasi) olib kelishi mumkin. Lekin xulosa qilishga shoshilmang! Xavotirga o'rin yo'q, xuddi shu tadqiqotda temir so'rilihiga ta'sir qilmasligi uchun qahvaning qaysi vaqtida ichilishi kerakligi aniqlangan. Unga ko'ra, qahvani taomdan 1 soat oldin ichish temirning so'rilihiga umuman ta'sir qilmagan. Demak, qahvani ovqatdan oldin iching, keyin emas. Shunda hech qanday muammo bo'lmaydi.

## Ca (kalsiy) va qahva

Qahva ichaklarda kalsiy (Ca)ning so'rilihiga deyarli ta'sir qilmaydi. "Deyarli" degani bir finjon qahvadagi kofein miqdori ta'sirida yo'qotilgan kalsiyini atigi bir osh qilish surʼi

bilan kompensatsiya qilish mumkin. Agar kalsiyigizdan xavotir olsangiz, ya'ni mutazam 4-5 finjon qahva ichsangiz, sut iste'mol qilib turing.

4-5 finjon qahva – 4-5 osh qoshiq sut.  
4-5 finjon choy – 4-5 osh qoshiq sut.

Eng qizig'i, qahva osteoporoz (suyak yemirilishi)ning rivojlanish xavfini kamaytiradi. Bu bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda ma'lum bo'lishicha kunda: 1 finjon qahva xavfni 8 foizga; 2-3 finjon – 11 foizga; 4 finjon – 9 foizga kamaytiradi; 4 finjondan ko'pi esa xavfni 10 foizga oshiradi.

E'tibor bering, qahva 4 finjondan ko'p iste'mol qilinganda xavf oshadi. Shuning uchun uni me'yorda iste'mol qilish ma'qul. Qahva tanlashda sifatlisisi olishga harakat qiling!



## Kruassan

**Kerakli masalliqlar:** 2 stakan sut, un, 6 osh qoshiq shakar, 2 ta tuxum, 150 g margarin, 100 g sariyog', 1,5 osh qoshiq achitqi.

**Kruassan ichiga:** shokolad.

**Siropiga:** 1 piyola shakar, 1 piyola suv.

**Tayyorlanishi:** birinchi bo'lib sutni ilitib, unga eritilgan margarin va shakar solib, aralashtiramiz. Idishimizga tuxumni chaqib olamiz (bitta tuxumning oqini sarig'idan ajratib, sarig'ini ustiga surish uchun olib qo'yamiz), so'ng tuxum ustiga massamizni solib, aralashtirib, un qo'shgan holda yumshoq xamir qoramiz, so'ng 8 zuvalaga bo'lib, tindirishga qo'yamiz. Tingan zuvalalarni aylana shaklida yupqa qilib yozamiz. Har bir yozilgan xamir ichiga sariyog' surtib, ustma ust qo'yib, birlashtiramiz. So'ng katta qilib yozib, kesib olamiz.

Shirinlik ichiga shokolad (xohishga ko'ra, mayiz, yong'oq)ni solib o'rab, 5 daqiqa tindirishga qo'yamiz.

Kruassanlarimizni pechda 150 °C da pishiramiz. Tayyor bo'lgunicha shakar va suvni qaynatib, sirop tayyorlab olamiz. Pishgan kruassanlarni siropga botirib, dasturxonqa tortamiz.

## Yoqimli ishtaha!

Sahifani Zebo SARIYEVA tayyorladi.



# BILIMDONLAR bellashuvi

Inson qaysi sohada bo'lmashin, o'qish va izlanishdan to'xtamasligi zarur. Kasb va hunarning yomoni bo'lmaydi. O'z sohasining yetuk mutaxassisini bo'lib yetishgan kadrlarga doim ehtiyoj bo'lган. Tinimsiz izlanishlar olib borish orqali inson shaxs bo'lib shakllanish bilan bir qatorda jamiyatga ham foyda keltiradigan malakali kadrlar qatorida e'tirof etiladi. Rivojlangan mamlakatlarning intellektiga tayangan holda olib borayotgan islohotlari bunga yorqin misol bo'la oladi.

Yurtimizda kitob mutolaasiga berilayotgan e'tiborning tag zamirida shu kabi manfaatlar mujassam. Ayniqsa, intellektual o'yinlarning musobaqa tarzida jamoalar o'rtaida o'tkazilishi yoshlarni izlanishga undab, kitob o'qishga qiziqishlarini oshirmoqda.

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida "Yoshlar oyligi" doirasida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yini ishtirokchilardan o'zgacha shijoat hamda teran tafakkurni talab etdi. Unda institutning



Mualif suratga oлган



"Aloqachilar", Toshkent viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasining "Yosh qutqaruvchilar", Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamentiining "Lochinlar", Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarining "Yosh chegarachilar", Yoshlar ishlari agentligi Zangiota tumani bo'limining "Yetakchilar" jamoalari 30 ta savoldan iborat 3 turda o'zaro bellashdi. Hatto musobaqa kuzatuvchilari kiprik qoqmasdan tomosha qilgan ushbu o'yinda yurtimiz va dunyo tarixi, adabiyot, san'at, buyuk ixtirolargaga oid hamda mantiqiy fikrlashga undovchi savollar ketma-ketligi o'rinn oldi.

- Bunday musobaqalarning o'tkazilishi ishtirokchilarning ko'proq izlanishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, kitobxonlik targ'iboti orqali buyuk tariximiz, adabiyotimiz va san'atimizni yoshlar ongiga singdirish, ularda vatanparvarlik tuyg'usi oshishiga erishiladi, - deydi mayor Sherq'o'zi Hakimov. - Qolaversa, savollarga berilayotgan javoblardan shuni kuzatish mumkinki, mantiqiy fikrlash insonning dunyoqarashini kengaytiradi. Hayotda

duch kelishi mumkin bo'lган holatlardan oson chiqib keta olish ko'nikmasini shakllantiradi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, "Yetakchilar" jamoasi 3-o'rin, "Yosh qutqaruvchilar" jamoasi 2-o'rin, "Aloqachilar" jamoasi esa faxrli 1-o'rinni egalladi. G'olib va sovrindorlarga diplom hamda sovg'alalar topshirildi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"



@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririysi bilan bog'lanish uchun telegram bot



## SHU SONNING ELEKTRON SHAKLI



MUASSIS

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI  
www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otobek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi:  
podpolkovnik Faxreddin Nutfillayev

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:  
kotibiyat: 71 260-36-50  
buxgalteriya: 71 260-35-20  
yuridik bo'lim: 71 260-29-41  
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov  
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva  
Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5769  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 34 186 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiha "O'zbekiston" NMU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: Kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:  
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaa\_vazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
www.mudofaa.uz



mudofaa\_vazirligi



mudofaa\_vazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya